



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QANONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunida chiqqa boshlagan. Birinchi nashri 16-fevral, №7 (3069)

**4-5** OZARBAYJONLIK HARBIYLAR  
"CHIMYON" DA MALAKA  
OSHIRDI

**6** YOSHLAR YETAKCHILARI  
HARBIY POLIGONDA

**9** XOJA AHROR VALIY  
AYBDORMI...

**12-13** SOKINLIK ORTIDAGI  
ZAHMAT

**18** MILLATNING IKKI DAHO,  
IKKI BUYUK SHOIRI



TOLE YO'QI JONING'A  
BALOLIG' BO'LDI,

1483—1530

HAR ISHNIKI AYLADIM,

XATOLIG' BO'LDI.

O'Z YERNI QO'YIB, HIND SORI YUZLANDIM,

YO RAB, NETAYIN,

NE YUZ QAROLIG' BO'LDI

MA'NAVIYATLI POSBON — TINCHLIGIMIZ KAFOLATI



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv\_vatanparvar\_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya



## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARINING MUDDATLI HARBIIY XIZMATGA NAVBATDAGI CHAQIRUVI HAMDA BELGILANGAN XIZMAT MUDDATINI O'TAB BO'LGAN MUDDATLI HARBIIY XIZMATCHILARNI QUROLI KUCHLAR REZERVIGA BO'SHATISH TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuniga muvofiq:

1. Chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolari 2024-yilning mart-aprel oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirilsin.

Harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo'lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq

ushbu chaqiruv davrida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga chaqirilmaydigan fuqarolar safarbarlik chaqiruv rezervi xizmatiga olinsin.

2. Muddatli harbiy xizmatning belgilangan muddatini o'tab bo'lgan harbiy xizmatchilar 2024-yilning mart-aprel oylarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezerviga bo'shatilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari belgilangan tartibda:

O'zbekiston Respublikasining chaqiruv yoshidagi fuqarolarining

harbiy xizmatga chaqiruvini o'tkazishda, shu jumladan ularni o'z vaqtida mudofaa ishlari organlarida hozir bo'lishlarini ta'minlashda mudofaa ishlari organlariga har tomonlama amaliy yordam ko'rsatsin;

har bir mahallalardagi yoshlar yetakchilari tomonidan mahalladagi botir, qo'rqmas, jasur yigitlarni o'rganish va ularning orasidan eng yaxshilarini muddatli harbiy xizmatga tavsiya etish ishlari tashkil etsin;

muddatli harbiy xizmatga yangidan chaqirilgan fuqarolarni harbiy qismlarga tantanali ravishda kuzatish,

rezervga bo'shatilgan fuqarolarni yashash joylarida tantanali kutib olish tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etsin. Ularni ish joylari bilan ta'minlash ishlari izchil davom ettirsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V. Maxmudov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Sh. Mirziyoyev  
Toshkent shahri**

#### Tahlil

## HARBIIY HARAKATLAR SHAHARGA "KO'CHADI"(MI?)

Hozirgi kunda dunyodagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy sohalarida kechayotgan shiddatli jarayonlar harbiy sohaga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, albatta. Shuni hisobga olgan holda, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik hamda totuvlikni ta'minlash, yurtimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish masalalari ustuvor yo'nalishlar etib belgilandi.

Mamlakatimizning harbiy-ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirish, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash, qo'shinlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga ahamiyat berilishi alohida ta'kidlab o'tildi. Xalqimiz hayotining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda Qurolli Kuchlarimiz alohida o'rin tutadi. Shu bois jangovar salohiyati yuqori, har qanday tahdidlarga qarshi tura oladigan armiyani muntazam takomillastirish zaruratini davrning o'zi talab etmoqda.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitda ijtimoiy-demografik jarayonning shiddatli va jadal sur'atlar bilan kechishi kelajakda qurolli to'qnashuvlarning ko'p qismi urbanizatsiyalashgan hududlarda amalga oshirilishiga olib kelishi mumkin. Aytish joizki, Yer shari aholisi sonini umumiy o'sishining jins-yoshi taqnoslanishi, rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan davlatlarga migratsiyasi urbanizatsiya jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ilmiy tahlillariga ko'ra, har yili Yer shari aholisi 77 mln nafarga ko'paymoqda, shulardan 60 millioni shahar hududlariga to'g'ri keladi. 2025-yilga kelib, Yer shari aholisining 60 foizi shahar sharoitida yashashi kutilmoqda.

Urbanizatsiya jarayonlari G'arbiy Yevropada jadallik bilan kechgan holda, mintaqada barcha yerlarning 50 foizi allaqachon shaharlar va qishloqlar tomonidan egallangan. Yevropaning

yagona urbanizatsiyalashgan hududini yaratish jarayoni davom etmoqda.

Ko'pgina zamonaviy shaharlar o'zlarining oldingi chegaralarini yo'qotib, shahar atrofi va qishloq hududlari o'zlashtirildi, ular turli transport kommunikatsiyalari bilan bog'landi. Dunyoning turli mintaqalarida aholining eng faol qismi – siyosiy hokimiyat va iqtisodiy obyektlar to'plangan, keng urbanizatsiyalashgan hududlar paydo bo'lmoqda.

Urbanizatsiya jarayoni nafaqat G'arb davlatlarida, balki qator Osiyo davlatlarida yuqori tezlikda amalga oshmoqda. Insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy holati yaxshilangani, aholining ko'chmas mulklarga e'tibor berishi va yaxshi sharoitda yashash istagi oshayotgani bunga sabab sifatida ko'rsatilmoqda. Vaziyatning bu zaylda rivojlanishi vaqti kelib urbanizatsiya tushunchasi ta'rifiga o'zgartirishlar kiritilishi yoki yangi talqinda qo'llanilishiga olib kelishi mumkin, degan taxminlar bor.

O'tmishdagi mustahkam shaharlardan farqli o'laroq, zamonaviy shaharlar ularda harbiy harakatlar olib borish uchun yaratilmagan. Shahar zamonaviy insonning faoliyat va yashash muhiti bo'lib, kishilar uni jangovar harakatlar uchun emas, balki kundalik hayot uchun qulay, shinam, samarali va foydali qilishga intiladilar. Shuning uchun urush paytida bir tarafdin shahar Qurolli Kuchlar uchun juda ko'p muammolar va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan o'ziga xos "jang maydoni"ga aylanadi. Lekin zamonaviy qurolli mojarolarda shu

narsa kuzatilmoqdaki, shahar va boshqa aholi punktlarida binolarning zich joylashgani, rivojlangan yerosti ta'minot inshootlarining mavjudligi ularning harbiy harakatlarni olib borishda qulay jang maydoniga aylanishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, shahar aholisidan tirik qalqon sifatida foydalanishga urinish holatlari ko'payib bormoqda. Bunga yaqqol misol sifatida Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa va Fors ko'rfazi mintaqalaridagi shaharlarda bo'lib o'tgan jangovar harakatlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kelajakda harbiy harakatlarning ko'p qismi shahar va aholi punktlari sharoitlarida kechish ehtimoli yuqori deyish mumkin. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda Qurolli Kuchlar tashkiliy tuzilishini belgilash, qo'shinlarni tayyorlash, qo'llash hamda harbiy texnika va qurol-yarog' bilan butlashda shahar va aholi punktlari sharoitlarida jangovar harakatlar olib borishning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy jangovar harakatlar tahlillariga ko'ra, shahar hududlaridagi jangovar harakatlarda qarama-qarshi tomonlar yuqori aniqlikda talafot yetkazish imkoniyatiga ega, avtomatlashtirilgan va sun'iy intellektli tizimlaridan keng foydalangan holda o'zlarining maqsadlariga erishishga intilmoqda. Ulardan jang maydonida dushman va vaziyat to'g'risida real vaqt rejimida razvedka ma'lumotlarini to'plash, nishonlarni belgilash va aniqlangan dushman nishonlarini yakson qilish, radioelektron kurash tadbirlarini amalga oshirish, hudud va obyektlarda muhandislik, radiatsion, kimyoviy va bakteriologik razvedkasi vazifalarini samarali bajarish maqsadlarida keng foydalanilmoqda. Muhim jihatlardan yana biri, sun'iy intellektga ega tizimlar aholi punktlaridagi jangovar sharoitlarda shaxsiy tarkibning xavfsizligini ta'minlash va jangovar vazifalarni minimal yo'qotishlar bilan bajarishga zamin yaratmoqda.

Mutaxassislar kelajakda nanotexnologiya yutuqlarining robotlashtirilgan komplekslarga tatbiq etilishi natijasida ular inson ko'ziga amalda ko'rinmas holga kelishi mumkin, degan xulosaga kelmoqda. Ularning fikriga ko'ra, jangovar harakatlar olib borish uchun kelajakdagi qurollar tizimining muhim elementi sifatida shahar jangining uch o'lchovli maydonida dushmanning joylashishini aniqlash uchun bo'linmalarni maxsus issiqlik, ovoz, biokimyoviy detektorlar va sensorlar bilan ta'minlashga qaratilgan tadqiqot ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Bunday sensorlar insonlarning jinsi va yoshini, hatto yaqin atrofdagi odamlarning niyati va tahdid darajasini aniqlashi mumkin bo'ladi.

Shahar hududlaridagi jangovar harakatlarda, ayniqsa uchuvchisiz uchish apparatlaridan razvedka qilish, raketa va artilleriya qurollarining o't ochishini yo'naltirish, jarohat olganlarga tibbiy yordam vosita va dori-darmonlarini yetkazish hamda qo'shinlarni boshqarishda keng foydalanilmoqda. Kichik o'lchamli taktik uchuvchisiz uchish apparatlari past tezligi va parvoz balandligi uncha baland bo'lmagani sababli uylar orasidagi ko'cha bo'ylab uchib, binolarning derazalaridan ichkaridagi vaziyatni kuzatishi mumkin bo'lmoqda.

Muxtasar aytganda, zamonaviy qurolli mojarolarda shahar va boshqa aholi punktlarida olib boriladigan janglar operatsiyalarning yakuniy maqsadiga erishish yo'lida muhim tugunga aylanib bormoqda. Jangni tashkillashtirishda aholi punktlarining infratuzilmasidan ustalik bilan foydalanish jang turidan qat'i nazar, komandirlardan yuqori mahorat va bilimdonlikni talab etadi. Shunday ekan, qo'shinlarni tayyorlashda ularni shahar sharoitida jangovar harakatlarni olib borish amaliyotiga o'rgatish tobora dolzarblashmoqda.

**B. JO'RAYEV,  
Qurolli Kuchlar Harbiy meros  
va zamonaviy tadqiqotlar instituti  
katta ilmiy xodimi, dotsent**



# FARG'ONANING TEMURBEKLARI

Keyingi yillarda O'zbekistonda ta'limga e'tibor kuchayib, bu haqda ko'p gapirilyapti, amaliy ishlar qilinmoqda. Yangi o'quv muassasalari, xususiyl o'quv markazlari ochilib, o'qitish uslublari ham o'zgarishlarga yuz tutmoqda. Bu ishlarni harbiy ta'limda ham ko'rish mumkin. Harbiy kadrlarni tayyorlash jarayonlari bugun quyidan yuqoriga tamoyili asosida shakllanib bormoqda. Umumta'lim maktablarida ixtisoslashgan sinflar, "Temurbeklar maktablari", Qurolli Kuchlar Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi, oliy harbiy bilim yurtlari, harbiy ilmiy-tadqiqot institutlari, harbiy akademiya...



Ayni kunlarda harbiy kasbga qiziqqan yoshlar mazkur ta'lim pog'onalaridan o'tib, sharaflil kasbni egallayapti.

Mamlakatimizda bir necha "Temurbeklar maktabi" faoliyat yuritib, ular Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Urganch, Shahrisabz va Nukus shaharlarida joylashgan. Farg'onadagi harbiy-akademik litsey bir necha o'n yillar narida tashkil etilgan bo'lsa-da, qaynoq faoliyati unga "Temurbeklar maktabi" deya nom berilganidan keyin boshlandi, desak, mubolag'a emas. Ammo shu nomning o'ziyoq litseyda yoshlarga faqatgina harbiy kasbning ilk saboqlari berilishini bildirmaydi. Shu bilan birga bu maktablarda bir vaqtlar Buyuk Turon, Ulug' Turkiston deyilgan, hozirda O'zbekiston nomi bilan namoyon bo'layotgan muqaddas zaminni sevish, uni ardoqlash, himoya qilish, ulug' ajdodlar an'analari davom ettirish barobarida millat erkinligi, uning haq-huquqlarini muhofaza etish bo'yicha saboqlar ta'lim dasturlarining o'zagini tashkil etadi.

Yaqinda Farg'ona "Temurbeklar maktabi"da bo'lib qaytdik. Bizni maktab faoliyati bilan direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Madina Badalova tanishtirib, quyidagilarni gapirib berdi:

- Maktabimizda o'qish istagini bildirganlar soni hamisha yuqori bo'lgan. Buning muhim omillari bir tomondan ta'lim sifati va yaratilgan shart-sharoitlar bo'lsa, ikkinchi jihatdan o'sib kelayotgan yoshlar orasida harbiy kasbni egallashga bo'lgan ishtiyoq yuqoriligidan bo'lsa kerak.

Farg'ona "Temurbeklar maktabi"da o'qish davomiyligi 2 yil bo'lib, bu davrda o'quvchilar to'liq davlat ta'minotida bo'ladi. Ularning yashash va o'qish jarayoni harbiy tartib-intizomga moslashtirilgan. O'quv-tarbiyaviy jarayon o'quvchilarni harbiy-kasbiy yo'naltirish va kelgusida ularni respublikaning oliy, oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qitish ko'zda tutilgan davlat ta'lim standartlari, o'quv rejaları va dasturlariga muvofiq, amalga oshiriladi. O'quvchilarimiz umumta'lim fanlaridan tashqari, Umumharbiy nizomlar, o'tochar qurollardan foydalanish, taktika, muhandislik tayyorgarligi va shu kabi bir necha yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olmoqdalar. Mashg'ulotlardan so'ng o'quvchilarimiz mutlaqo bepul chuqurlashtirilgan qo'shimcha darslarda qatnashishi mumkin.

Ular oliy ta'limga sifatli tayyorlash maqsadida DTM markazi bilan tuzilgan memorandum asosida har oy yakunida test sinovlari o'tkaziladi va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan alohida ishlar olib boriladi.

2023-yilgi bitiruvchilarimiz orasida 15 nafar o'quvchimiz imtiyozli diplomlar bilan o'qishni yakunladi. 102 nafar bitiruvchining 98 foizi harbiy bilim yurtlari va oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirib, 95 foizi davlat granti asosida talabaga aylandi.

Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yilida Farg'ona shahrida "Temurbeklar maktablari" va "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseylari o'quvchilari o'rtasida "Mudofaa vaziri kubogi" uchun "Amir Temur izdoshlari" deb nomlangan fizika, matematika, O'zbekiston tarixi hamda ingliz tili fanlaridan olimpiada o'tkazildi. O'zbekiston Qurolli Kuchlari akademiyasining professor-o'qituvchilari hamda harbiy-akademik litsey o'qituvchilaridan tarkib topgan hakamlar hay'ati bahosiga ko'ra, 8 nafar o'quvchimiz faxrli o'rinlarni egallab, umumjamo'a hisobida 1-o'rinni qo'lga kiritdi va Mudofaa vazirligi kubogiga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizligi xizmati va Milliy gvardiyasining qo'shma qaroriga ko'ra, 2023-yili "Temurbeklar maktablari" va "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseylari o'rtasida "Amir Temur avlodlari" respublika harbiy sport tanlovi o'tkazildi. Yoshlar ishlari agentligi va Farg'ona viloyati sport uyushmasining sport ustalari nazorati va hakamligida o'tgan musobaqalarning harbiylashtirilgan estafeta, harbiy ko'pkurash kompleksi hamda o'q otish turlari bo'yicha Mudofaa vazirligiga qarashli Farg'ona "Temurbeklar maktabi" jamoalari faxrli 1-o'rinni egalladi hamda "Amir Temur avlodlari" kubogini qo'lga kiritdi.

Bu kabi yutuqlarni pedagogik jamoamiz mehnatlarining samarasi, deb bilaman. O'qituvchilar xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlarda o'z maqolalari bilan faol qatnashib kelmoqda. Matematika fani o'qituvchisi Dilfuza Olimova "Singulyar koeffitsiyentli ikkinchi tartibli xususiyl hosilali differensial tenglamalarning nolokal chegaraviy masalalari" mavzusida, biologiya fani



o'qituvchisi Dilnoza Asqarova "Farg'ona vodiysining invaziv hashorotlari (tur tarkibi, bioekologiyasi va xo'jalik ahamiyati)" mavzusida, ingliz tili o'qituvchisi Husnida Juraboyeva "Badiiy matnning lognitiv-poetik tadqiqi" mavzusida, ona tili fani o'qituvchisi Feruza Boymirzayeva "Muloqotda qo'llanadigan savol berish va so'rash jarayonining lingokulturologik tadqiqi" mavzusida, matematika fani o'qituvchisi Javlon Jumayev "Integrativ yondashuv asosida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarining mustaqil ishlash kompetensiyalari" mavzusida ilmiy ish ustida izlanmoqdalar. O'tgan o'quv yilida matematika, fizika, kimyo va informatika xonalari zamon talabiga mos ravishda qayta jihozlanib, o'quvchilarga yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish uchun imkoniyat yaratildi.

Yoshlarda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlariga chuqur hurmatni, milliy g'ururni shakllantirish, Amir Temurning bebaho merosi, qahramon vatandoshlarimizning jasoratlari asosida O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlarga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash, mard va jasur Vatan himoyachilarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun kadrlar rezervini shakllantirish maqsadida oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishi uchun munosib nomzodlarni tayyorlash borasida faoliyat yuritayotgan maktabimizga yoshlar respublikamizning barcha viloyatlaridan kelib o'qishlari mumkin.

Muhim vazifalarni bajarish uchun ta'lim dasturlaridan tashqari, maktabimizda o'nga yaqin fan va sport to'garaklarining faoliyati yo'lga

qo'yilgan. "Yosh aviamodel", "O'q otish", "Sharq yakkakurashi", "Sharq dastasi" kabi to'garaklarimizda ko'p yillik tajribaga ega yo'riqchilar rahbarligida o'quvchilarimiz viloyat va mamlakat miqyosida o'tkazilayotgan fan olimpiadalari, sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishmoqda.

O'tgan yilning noyabr oyida Qozog'iston Mudofaa vazirligi harbiy ta'lim va fan departamenti yo'nalish katta ofitseri podpolkovnik Baxtur Kairov boshchiligidagi Qozog'iston Mudofaa vazirligi harbiy kolleji hamda "Jas ulan" harbiy maktabi vakillari harbiy-akademik litseyimizga tashrif buyurib, ta'lim jarayoni va o'quvchilarimizning bilimiga yuqori baho berishdi. Ta'lim yo'nalishida o'zaro hamkorlikni izchil yo'lga qo'yish bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildirishdi. Bunday hamkorliklar ilg'or xorij tajribalarini o'rganish maqsadida amalga oshirilmoqda.

Maktabimiz bitiruvchilariga oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballning 30 foizi miqdorida, boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa 15 foizi miqdorida qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi.

"Temurbeklar maktabi"ni imtiyozli diplom bilan tugatgan bitiruvchilarga tarkibida "Temurbeklar maktabi" bo'lgan vazirlik va idoralarning tegishliligi bo'yicha oliy harbiy yoki ixtisoslashtirilgan bilim yurtlariga test sinovlarisiz (harbiy-kasbiy saralash tadbirlaridan muvaffaqiyatli o'tgan taqdirda) o'qishga kirish huquqi beriladi.



Ozarbayjon O'zbekiston Respublikasini dunyo xaritasidagi mustaqil davlat sifatida tan olgan ilk mamlakatlardan biridir. Bugungi kunda O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida tarixan shakllangan yaqin do'stona munosabatlar yanada jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Hamkorlik aloqalarining harbiy sohada ham rivojlanishi, shubhasiz, ikki qardosh xalq manfaatlarini va Qurolli Kuchlari yuksalishiga xizmat qiladi.

# OZARBAYJONLIK HARBIYLAR



Ozarbayjon Respublikasi Mudofaa vazirligining bir guruh harbiy xizmatchilari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi "Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv mashqlar markaziga tashrif buyurib, "Tog' yetakchisi" o'quv kursida ishtirok etayotgani ham harbiy hamkorlik aloqalarining rivojlanib borayotganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, bugun zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritayotgan "Chimyon" tog' tayyorgarligi o'quv mashqlar markazi harbiy xizmatchilarning tog'li hududlardagi qiyin sharoitlarda jang olib borish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishda, mahoratini boyitib borishda dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mashg'ulotlar o'quv mashqlar markazining malakali yo'riqchi mutaxassislar tomonidan zamonaviy metodlar asosida olib boriladi. Ishtirokchilar turli fasllarga

mo'ljallangan o'quv kurslarda ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlarda toblanadi.

Ozarbayjonlik harbiy xizmatchilar o'quv kursi rejasiga ko'ra, dastlab nazariy mashg'ulotlarda ishtirok etdi. Shundan so'ng tog' anjomlaridan samarali foydalanish, qoyaga ko'tarilish va tushish, tabiiy tog' to'siqlari yo'lagidan oshib o'tish, tog'li sharoitda o'q otish, yaradorga birinchi malakali tibbiy yordam ko'rsatish hamda xavfsiz evakuatsiya qilish kabi yo'nalishlarda mahoratlarini oshirdi.

**Katta praporshik Seymur ASLANOV, Ozarbayjon Mudofaa vazirligi vakili:**

– O'quv kursi davomida tog'li hududlarda taktik jangovar harakatlarni olib borish, chuqur qorli, muzli hududlarda harakatlanish bo'yicha bilimlarimizni mustahkamladik. Qisqa vaqt mobaynida o'zbekistonlik harbiy xizmatchilardan juda ko'p narsa o'rgandik va bu bizning malakamiz oshishiga xizmat qildi.







# “Chimyon” da malaka oshirdi



Ozərbaycan Respublikasında tog'li hududlar juda ko'p bo'lib, ularning balandligi uch yarim ming metrgacha yetadi. Baland tog'lardagi iqlimimiz bir-biriga o'xshash bo'lgani uchun biz deyarli qiyinchiliklarga duch kelmadik. O'zbekistonlik hamkasblarimiz mahoratini juda yuqori baholaymiz. Ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham a'lo darajada ekan. Mashg'ulotlar yuqori saviyada tashkil etildi. Bir so'z bilan aytganda, o'quv kursi biz uchun samarali bo'ldi. Eng muhimi, biz bir-birimizni tarjimonsiz juda yaxshi tushungan holda hamjihatlikda ishladik.

**Katta praporshik Zaur FARADJOV, Ozarbayjon Mudofaa vazirligi vakili:**

– O'zbekistonga tashrifim birinchi marta emas. Bundan ikki yil avval “Forish” poligonida bo'lib o'tgan Xalqaro armiya o'yinlarining “Harbiy-tibbiy estafeta” musobaqasida ishtirok etgan edim. Ko'rib guvohi bo'lib turibmanki, o'zbekistonlik harbiy xizmatchilarning mahorati yildan yilga oshib, takomillashib boryapti.

Bizning jangovar harakatlar olib borish bo'yicha malakamiz borligi uchun bu mashg'ulotlar o'zbekistonlik hamkasblarimiz bilan o'zaro tajriba almashish vositasi bo'ldi. Ammo o'quv kursi davomida yangi bilim, yangi tajriba va ko'nikmalarga ega bo'ldik.

Yashasin, O'zbekiston – Ozarbayjon qardoshligi!

Qardosh ozarbayjonlik harbiy xizmatchilar ta'kidlaganidek, o'quv kursi yuqori saviyada tashkil etildi va bu ular uchun har tomonlama foydali bo'ldi. Boisi, qardoshlarimiz dunyoning yetakchi tog' tayyorgarligi markazlaridan birida o'z mahoratlarini oshirdi.

O'quv kursi yakunida ishtirokchilarga sertifikatlar berildi.

**Katta leytenant  
Islomjon QO'CHQOROV,  
“Vatanparvar”**





# YOSHLAR YETAKCHILARI HARBIY POLIGONDA

Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili munosabati bilan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, Xorazm viloyati hokimligi hamda viloyat Yoshlar ishlari agentligi boshqarmasi bilan hamkorlikda "Yangiariq" umumqo'shin poligonida tashkil etilgan ikki kunlik o'quv-uslubiy yig'inga jami 500 nafardan ziyod mahallalardagi yoshlar yetakchisi jalb etilib, yoshlar bilan ishlashning yangi tizimi bo'yicha malaka va bilimlari oshirilib, ularga birlashtirilgan mahallalarda faoliyatini samarali olib borishga ko'mak berildi.



Yoshlar bilan ishlashning yangicha usuli bo'lmish "Xorazm tajribasi" loyihasining tantanali ochilish marosimida Xorazm viloyati hokimi, harbiy-ma'muriy sektor rahbari Jo'rabek Rahimov, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov, viloyat prokurori adliya polkovnigi Murodixon Ahmedov, viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i polkovnik Ravshan Sultanxodjayev, Yangiariq tumani hokimligi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

So'zga chiqqanlar, bugungi globalashuv jarayonlarida odamlar, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi o'ta murakkab sharoitda hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib, yoshlar tarbiyasi bilan puxta shug'ullanishimiz, bu jarayonda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini alohida ta'kidlab o'tishdi. Ushbu yig'inda olingan bilim va tajriba kelgusida mahalla yoshlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etishda, ularni vatanparvarlik hamda yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda dasturulamal bo'lib xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Ertalabki badantarbiya mashqlaridan boshlangan yig'in barcha ishtirokchilar uchun harbiycha kun tartibiga qat'iy amal qilish, kun davomida vaqtni to'g'ri va unumli taqsimlashni o'rgatib, bir kundan samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatib berdi. Ishtirokchilar yig'in davomida harbiy okrug qo'mondonligi tomonidan harbiy ust-bosh hamda

uch mahal kaloriyaga boy taomlar bilan ta'minlandi.

Shundan so'ng yig'in doirasida turli mavzularda ma'ruzalar tinglanib, yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini bevosita mahallalarda hal etishning yangi tizimi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tildi. Yangi O'zbekiston yoshlarini ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy muhofazasi hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga mas'ul davlat idoralari va tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash borasida tavsiyalar berildi. E'tiborlisi, yig'inda ishtirok etayotgan mahalla yoshlar yetakchilarining katta qismi harbiy xizmatni o'tagan bo'lib, harbiylik haqida tushunchalarga ega. Shu bois yig'in ularning ko'pchiligiga harbiy xizmat yillarini yodga olish, qisqa muddatga bo'lsa-da, o'zini Vatan himoyachilari safida yana bir bor his qilish imkonini yaratdi.

Nazariy mashg'ulotlar doirasida harbiy va ijtimoiy mavzulardan tortib, bugun yurtimizda olib borilayotgan keng islohotlar, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi yutuqlarimiz e'tirof etilib, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatining o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, mahallalardagi yoshlarni birlashtirish, ularning muammolarini o'rganish va ijobiy hal etish, turli psixologik trening mashg'ulotlarini o'tkazish, ularda liderlik xususiyatlarini shakllantirish, ruhiy tushkunlikni yengib o'tish bo'yicha mahorat darslari o'tkazildi.

Viloyatdagi 531 ta mahallaning har birida kamida 5 nafar o'g'il bolani muddatli harbiy xizmatga nomzod sifatida tayyorlash va ularni tuman mudofaa ishlari bo'limlariga taqdim etish tizimini joriy etish, mahalla raisi bilan harbiylik kasbiga qiziqishi baland yoshlarning ro'yxatini shakllantirish kabi vazifalar belgilab olindi. Harbiy kasbga qiziqishi baland yoshlar bilan mahalladagi Qurolli Kuchlar faxriylari, viloyatdagi harbiy qismlar bilan hamkorlikda "Men ham harbiy bo'laman!" mavzusida davra suhbatlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish borasida tavsiyalar berildi.

Yil yakunigacha "Yoshlar balansi" platformasi bazasida yaratilgan eng ilg'or, vatanparvar yoshlarni muddatli harbiy xizmatga tavsiya etish bo'yicha shaffof va xolis tizimni mudofaa ishlari bo'limlari elektron bazasiga bog'lash haqida kelishib olindi. Shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan mahalla yoshlarini ish bilan ta'minlash va o'qishga yo'naltirish, ularning vatanparvarlik ruhida tadbirlarda ishtirok etishini ta'minlash kabi tizimli ishlarni joriy etish ko'rib chiqildi.

O'quv-uslubiy yig'inda Qurolli Kuchlar kuch tuzilmalarida foydalaniladigan texnika va qurol-aslahalar namoyishi tashkil etilib, ishtirokchilarga Mudofaa vazirligi bo'linmalarini cho'l sharoitida tayyorlash markazi faoliyati tanishtirildi. Poligon hududida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari bilan shug'ullanish uchun bunyod etilgan o'quv joylari, jangovar

shaharchalar yoshlar yetakchilarida katta taassurotlar qoldirdi.

O'quv-uslubiy yig'inning amaliy qismida ishtirokchilar uchun o'q otish tayyorgarligi, yashovchanlik asoslari, harbiy-tibbiy tayyorgarlik, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi. Harbiylashtirilgan estafeta va jamoaviy o'yinlar yig'inga jalb qilingan shaxsiy tarkib o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bilan birga kuchli raqobat muhitini yaratdi.

Ayni vaqtda muddatli va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan askarlar, serjant va ofitserlarning armiyaga kelib, nimalarga erishgani haqidagi suhbat, harbiy xizmat bergan imkoniyatlar borasida muloqot yoshlar yetakchilariga harbiylik haqida ko'proq tushunchalarni berdi.

Minifutbol, voleybol, tosh ko'tarish va arqon tortish bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar mahallalarda yoshlarga yetakchilik qiladigan yigitlarga kuch sinashish va sport bilan shug'ullanish imkonini yaratdi.

Yig'inning madaniy qismida ishtirokchilar uchun Nukus garnizoni harbiy orkestri, Xorazm viloyati xonandalari tomonidan konsert dasturlari, vatanparvarlik ruhida milliy sahna ko'rinishlari hamda filmlar namoyish qilindi.

**Podpolkovnik  
Timur NARZIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**



## Kinologiya xizmati



## SODIQ DO'ST

Tarixdan ma'lumki, insoniyat qo'lga o'rgatgan ilk jonivorlardan biri kuchuklardir. Bu aqlli jonivorlar bugungi kunda ham odamzodga sodiq do'st sifatida beminnat xizmat qilyapti.



O'zbekiston Qurolli Kuchlari tizimida xizmat itlaridan muhim obyektlarni qo'riqlash, buzg'unchilarni qo'lga olish, shuningdek qidiruv-qutqaruv ishlarida keng foydalanib kelinadi.

Jahon talablariga to'liq javob bera oladigan Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazi o'z o'rnida kinologiya sohasi rivoji uchun munosib hissa qo'shib kelmoqda. Xususan, markaz tomonidan kuch tuzilmalari uchun malakali mutaxassis-kinologlar va xizmat itlarini tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan.

O'quv-amaliy mashg'ulotlarni kuzatar ekanmiz, aqlli jonivorlarning sezgirliigi, chaqqonliigi, topqirligi-yu, topshiriqlarni bekam-u ko'st bajara olish ko'nikmasiga ega ekanliigi bizni lol qoldirdi.

- Markazimizda bugungi kunda saralash, mutaxassislarni tayyorlash va malaka oshirish kurslari mavjud bo'lib, bu kurslar tegishli dasturlar bo'yicha

tasdiqlangan reja asosida yil davomida Mudofaa va Ichki ishlar vazirliklari, Milliy gvardiya qo'shinlari kinologiya bo'linmalari mutaxassis-kinologlarini o'qitish bilan shug'ullanib kelmoqda. Bundan tashqari, zotdor itlar naslini ko'paytirish va yo'nalishlar bo'yicha xizmat itlarini tayyorlash ishlari olib borilyapti, - deydi katta leytenant Javlon Nizomov.

Barcha qulayliklarga ega markazda har bir kurs bo'yicha mashg'ulotlar rejasi tuzilgan bo'lib, o'qitishning yangi usullari amaliyotga joriy etib kelinmoqda. Bundan tashqari veterinariya xizmati va naslchilikka alohida e'tibor qaratilgan. Aqlli jonivorlarni ozoda saqlash, sifatli oziqlantirish, ularning zotdor turlarini ko'paytirish bo'yicha maqsadli va samarali ishlar olib borilmoqda.

- Hozirda "Malinua" zotli Belgiya ovcharkasiga talab yuqori. Shu bois markazimizda ushbu turni ko'paytirish

## VA DASTYOR KO'MAKCHI



bilan bir qatorda Sharqiy Yevropa va nemis ovcharkalari hamda "Labrador" zotli kuchuklarni ko'paytirishga alohida e'tibor qaratilgan. O'tgan yili 50 bosh xizmat itini parvarishlab safga qo'shgan bo'lsak, joriy yilda 100 bosh xizmat itini yo'nalishlar bo'yicha tayyorlashni maqsad qilganmiz. Bunda asosiy e'tiborni Belgiya ovcharkasiga qaratamiz. Chunki ular o'ta abjir va aqlli, - deydi III darajali serjant Jamshid Egamberdiyev.

Zamonaviy jihoz va asbob-anjomlar bilan butlangan veterinariya bo'limida UTT, rentgen apparatlari, jarrohlik amaliyotini o'tkazish uchun mo'ljallangan barcha uskunalar mavjud. O'z o'rnida xizmat itlarining salomatligi sohaning malakali mutaxassislari tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib borilmoqda.

- Bo'limimizga xizmat itlari ko'proq mashg'ulot vaqtida olgan jarohatlari, ya'ni paylari cho'zilgan, terisi shilingan holatda keltiriladi. Ularga tezda

birinchi yordam ko'rsatamiz, - deydi leytenant Romesh Iskandarov. - Bundan tashqari, bo'limimizdagi UTT, rentgen apparatlaridan foydalanib, xizmat itlarining salomatligini doimiy nazorat qilib boramiz. Ayniqsa, tug'ish davridagi itlarni tez-tez ko'rikdan o'tkazib turamiz. Boisi ularni qo'shimcha oziqlantirish, tug'ilajak kuchuklarning rivojlanishini kuzatib borish zarur.

Bir so'z bilan aytganda, Mudofaa vazirligi Mutaxassis va xizmat itlarini tayyorlash markazida malakali mutaxassis-kinolog va yo'riqchilarni tayyorlash, ularni saralash, malakasini oshirish, zotdor itlar naslini ko'paytirish va yo'nalishlar bo'yicha tayyorlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilgan. Soha rivoji yo'lida yangi g'oya va maqsadlar bilan istiqbolli rejalar ustida izlanishlar olib borilmoqda.

**Abror TOSHMATOV,**  
jurnalist





Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo milodiy 1483-yil 14-fevral sanasida Andijonda tug'ildi. 47 yil yashagan temuriy shahzoda insoniyat tarixida yorqin xotiralar bilan yodga olinadigan shaxslardan biridir. Uning nomi aytilganida buyuk davlat arbobi, shoir, tarixchi, geograf, iste'dodli sarkarda, Boburiylar sulolasi asoschisi kabi sifatlar qo'shib aytiladi.

Boburning otasi – Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi – Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi.

Uning ismini mashhur so'fiy Xoja Ahror qo'ygan edi: Zahiriddin Muhammad.

“Bobur” dovyurakligi uchun berilgan laqabdir.

Umarshayx mirzo Axsida 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, taxtga to'ng'ich farzand 12 yoshli Bobur o'tiradi.

# BOBUR TAVALLUDIGA 541 YIL


**BOBUR OTA TOMONDAN AMIR TEMURNING BESHINCHI, ONA TOMONDAN TUG'LUQ TEMURXONNING YETTINCHI AVLODI**

## OTA TOMONDAN

Amir Temur ko'ragon (1336–1405)  
Mironshoh mirzo (1366–1408)  
Sulton Muhammad mirzo (1398–1444)  
Sulton Abusaid ko'ragon (1424–1469)  
Umarshayx ko'ragon (1456–1494)  
Bobur (1483–1530)

## ONA TOMONDAN

Tug'luq Temurxon (1329–1362)  
Xizr Xojaxon (1358–?)  
Muhammadxon (?–1456)  
Sheralixon (taxtga chiqmagan)  
Uvaysxon (?–1428)  
Yunusxon (1468–1487)  
Qutluq Nigor xonim (Yunusxonning qizi) (1457–1504)  
Bobur (1483–1530)




## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BITIKTOSHI

Zahiriddin Muhammad Boburga tegishli bitiktosh hijriy 917-milodiy 1511–1512-yilda bitilgan. O'lchami 51x45x16 sm. Toshning maydoni 20 sm.ga 30 sm. Yuzasida nastaliq yozuvida Shayx Sa'diy Sheroziyning “Bo'ston” asaridan ushbu uch bayt o'yib yozilgan:

*Eshitganim borki, Jamshiddek nomdor  
Bir buloq toshiga yozdirdi yodgor:  
Bu buloq boshiga ko'plar yetdilar,  
Ko'z yumib ochguncha yitib ketdilar.  
Mardlig-u zo'rlik-la olamni oldik,  
Lekin qabristonga quruq yo'l soldik.*

## BOBURNING NABIRASI HUKMDOR AKBARSHOHGA TEGISHLI JANG KIIYIMLARI. Mumbai muzeyi, Hindiston.



### MIRZO MUHAMMAD HAYDAR, tarixchi, Boburning zamondoshi:

...U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga ega bo'lgan bir podshoh edi. Ushbu barcha fazilatlaridan shijoat va muruvvati ustun turardi. Turkiy she'ri Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas.

### JAVOHARLA'L NERU, Hindiston Bosh vaziri:


Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi.

### EDUARD XOLDEN, ingliz tarixchisi, “Boburnoma” tarjimoni:

Bobur fe'li sajiyasiga ko'ra, Sezarga qaraganda sevishtga arzgulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan.



## IBROHIM LO'DIY



1526-YIL 21-APREL

## BOBURNING HINDISTONNI OLISHI

1519-yil bahoridan boshlanadi. Besh, olti yil davom etgan jang-u jadallar 1526-yilning aprelida Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning 100 ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tormor qilish bilan yakuniga yetadi. Dehli egallanadi. Oradan ko'p o'tmay,

ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi. Agrani poytaxt etib belgilaydi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli Boburiylar sulolasiga asos soladi.

## VAFOTI

1526-yil 21-dekabrda Boburga qarshi suiqasd uyushtiriladi. Ibrohim Lo'diyning onasi oshpazlar bilan til biriktirib, uning ovqatiga zahar qo'shtiradi. Shuning asoratimi yoki ko'p yillik mashaqqatli va qo'nimsiz hayot ta'sirimi, keyingi yillarda Bobur tez-tez kasalga chalinib turadi. 1527-yili oktabrda Bobur yana xastalikka uchragach, umrining oxirlab qolganini his etadi. Shunda Bobur o'zi e'tiqod qo'ygan Xoja Ahror Valiiga ixlos bilan uning nasrda bitilgan “Volidiya” asarini she'riy tarjima qiladi. 243 baytli bu asar katta ijodiy ilhom bilan juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning e'tiroficha, tarjima tugashi hamonq batamom sog'ayib ketgan.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirgan Bobur 47 yoshida o'zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o'sha yerda dafn etildi.

Keyinchalik 1539-yilda vasiyatiga ko'ra, xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan “Bog'i Bobur”ga qo'yildi.

Furqat ERGASHEV tayyorladi.



Tarix qatidagi haqiqat

# XOJA AHROR VALIY AYBDORMI

## YOXUD KANADALIK OLIM NEGA CHALKASHGAN?

XX asrning ikkinchi yarmida Yevropa, Amerika va Kanada olimlari tomonidan ham Alisher Navoiyning adabiy-ilmiiy merosi bo'yicha tadqiqot olib borilishi navoiyshunoslik rivojiga munosib hissa qo'shdi. Bu borada kanadalik olim Mariya Sabteln xonimning "Temuriy hukmdor Husayn Boyqaro saroyi adabiy muhiti va uning siyosiy ahamiyati" mavzusidagi tadqiqoti e'tiborga arzigulik. Olim ilmiy izlanishlarida Hirot adabiy muhitining yuzaga kelish omillariga alohida urg'u berib, buning asosiy ildizi sifatida temuriylar tarixini sinchiklab o'rgangan. Har bir manbaning qo'lyozmasiga, original tiliga murojaat qilishi bois olimning tahlil va talqinlarida Alisher Navoiy davri muhitini his etish mumkin.

Hirot madaniy muhitining gullab-yashnashini Mariya Sabteln Husayn mirzoning faoliyati bilan bog'laydi: "1469-yilda Temur nabirasi Husayn Boyqaroning hokimiyat tepasiga kelishi va Hirotga qariyb qirq yil davom etgan hukmronligi Xurosonning birligi va barqarorligini ta'minladi. Xurosonning asosiy siyosiy markazi Hirot Temuriylarning Samarqand va Oqquyunlilarning Tabriz kabi qudratli madaniy markazlari bilan raqobatlashishga majbur bo'ldi. Bular, o'z navbatida, temuriy shahzodalar va ularning hokimlari boshqaradigan Balx, Marv, Toshkent, Astrobod, Hisor, Kobul va boshqa ko'plab markazlar uchun namuna bo'lib xizmat qildi".

Olim Xuroson poytaxti Hirotning boshqa madaniy markazlarga nisbatan yetakchilikni qayta qo'lga olishiga alohida e'tibor qaratadi. Bu shaharda Shohrux mirzo, Boysung'ur mirzo, Abulqosim mirzolar davrida ham shoirlar, musiqachilar qo'llab-quvvatlanganini ta'kidlab, Hirot madaniy muhitining moddiy asoslarini temuriy hukmdorlar boshlagan an'analarga bog'laydi. Agar madaniy muhitga homiylik qilish borasida avvalgi temuriy hukmdorlarning mustahkam asosi bo'lmaganida, Husayn Boyqaroda bunday imkon bo'lmas edi, degan fikrni ilgari suradi. Husayn mirzoning zamonasida bu an'ana eng yuksak cho'qqisiga yetgani va boshqa madaniy markazlarga etalon vazifasini bajarganini e'tirof etadi.

Olim Husayn mirzo homiylik va rahnamoligida bunyod bo'lgan Hirot madaniy va adabiy muhitining jozibador tomonlarini e'tirof etish bilan birga uning raqobatchilik ruhini ham tarixiy faktlar orqali tekshirmoqchi bo'ladi: "Samarqand hamon muhim siyosiy markaz bo'lsa-da, XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Ulug'bek davridagi madaniy obro'-e'tiborini yo'qotdi. Shahar o'sha paytda naqshbandiy shayx Xoja Ahror Valiy ta'sirida bo'lgan Abusaidning o'g'illaridan biri Sulton Ahmad mirzo tomonidan boshqarilardi. O'z navbatida, Xoja Ahror Valiyning ilm-fan va madaniyatga salbiy munosabati shaharni madaniy jihatdan jozibali qilmadi. Qolaversa, Sulton Ahmad mirzoning o'zi ham, Boburning fikricha, hech narsa o'qimagan, sodda fikrli turk edi. Bu omillar Samarqandni Hirotidan pastroq qilib qo'yishiga va jiddiy raqib sifatida yo'q bo'lishiga yordam berdi".

Olimning Xoja Ahror Valiy xususidagi fikri taajjublanarli va nuqsonlidir. Tadqiqotning mazkur fikrlar keltirilgan manbalariga diqqat qilsak, bu yerda Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" va Boburning "Boburnoma" asarlari ko'rsatilgan. Bu manbalar Sulton Ahmad mirzoning ilmsizligi va Samarqand madaniy muhitining tanqidi bilan

bog'liq. Lekin olim aynan Xoja Ahror Valiyning "ilm-fan va madaniyatga salbiy munosabati"ni qaysi manbaga tayangan holda bildirmoqchi bo'lgani mavhum, asos va manba keltirmagan.

"Boburnoma"da Sulton Ahmad mirzoning sodda va ilmga befarqligi haqidagi ma'lumotni aslida Boburning nozik dididan kelib chiqib, tahlil qilish kerak: "...hech nimarsa o'qug'on emas edi, omi edi, turk va sodda edi. Tab'din bahrasi yo'q edi". Bu ta'rif Sulton Ahmad mirzoning mutlaqo savodsizligini anglatmaydi. Mirzo Bobur yashagan davrlarda temuriylar erishgan mislsiz muvaffaqiyatlarda oqil va ko'p o'qiydigan hukmdorlarning ulushi katta bo'lgan. Shu bois Bobur amakisi Ahmad mirzoning shahar markazida, turli ilmlar o'chog'ida ulg'aya turib, birona ilmida kamolot hosil qilmagani va badiiyat olamidani yiroqligini omilik deya baholagan bo'lishi mumkin.

Mariya Sabteln "Boburnoma"ni sinchiklab mutolaa qilganiga hech qanday shubha yo'q. Olim "Boburnoma"ning bir necha o'rinda Xoja Ahror Valiy Temuriylarning feodalistik urushlarini to'xtatishga erishib, sulh tuzdirgani, umrining qaltis lahzalarida Boburni bir necha bor ruhan qo'llagan haqidagi ma'lumotlarni o'qimaganiga ishonish qiyin. Shuningdek, Mariya Sabteln Boburning ma'rifiy hukmdor bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutgan Andijon muhitiga Xoja Ahror Valiyning ta'siri va unga ism tanlab bergani haqidagi ma'lumotlarni ham "Tarixi Rashidiy"dan o'qigan bo'lishi kerak. Chunki tadqiqotning ko'p o'rinlarida mazkur asar ma'lumotlaridan ham foydalangan. Asarning salmoqli qismi esa naqshbandiya tariqati vakillariga ajratilgan bo'lib, ular orasida Xoja Ahror Valiy markaziy fenomen darajasiga ko'tarilgan.

Qolaversa, Xoja Ahrorning tom ma'nodagi pok siyratini gavdalantiruvchi tasavvufiy asarlardan (Muhammad Qozining "Silsilat ul-orifin", Ali Safiyning "Rashahot") ham Mariya Sabteln xabardor bo'lgan. Bu manbalarning barchasida Xoja Ahror Valiy tasavvuf ahliga chin ma'noda ustoz va pir bo'lganiga ishonchli dalillar ko'p.

Shunday ekan, olimning Xoja Ahror Valiy Samarqand madaniy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatgan deya xulosa chiqarishiga qanday sabab bo'lishi mumkin?

Akademik Botirxon Valixov jayevning "Buyuk ma'naviy murshid" risolasida keltirilishicha, bunday uydirma va tuhmat



ma'lumotlarning aksariyati Xoja Ahror Valiy tirikligidayoq tarqala boshlagan. Noxolis ma'lumotlar uning mulki va obro'sini ko'rolmagan dushmanlari tomonidan tarqatilgan. Ali Safiyning "Rashahot arn ul-hayot" asarida Xoja Ahror Valiy Samarqandda yashab yurgan kezlari ba'zi bir din peshvolarining ta'qibiga uchragani tilga olinadi. Mazkur asarda yozilishicha, Xoja Mavlono degan kimsa Xoja Ahror Valiyning kundan kunga oshib borayotgan obro'sidan tashvishga tushib, atrofdagi beklarni uning uyiga bormaslikka, uni yakkalab qo'yishga, mulkini musodora qilishga da'vat etadi.

Hukmdor temuriy Sulton Ahmad mirzoning esa Xoja Ahror Valiyga ixlosi baland bo'lib, suhbatini olish uchun a'yonlari bilan pirining huzuriga tez-tez kelib turar edi. Bunday izzat-e'tiborni ko'ra olmagan, qolaversa, Xoja Ahror Valiy og'ir xastalik tufayli Samarqand madrasasida o'qishni tugatmaganini bilgan Xoja Mavlono uning ortidan "qishloqi shayx" deb masxara qilib yuradi. Bir kuni Xoja Mavlono muridlari bilan suhbatda Xoja Ahror Valiy "bu jual (axlat qo'ng'izi), uning ishi mol-mulk to'plashdan boshqa narsa emas", deb haqoratlaydi. Bu gap Xoja Ahrorning qulog'iga yetib borgach, shunday deydi: "Oqibatda jualday o'lgay!"

Oradan ko'p o'tmay, Xoja Mavlono xastalikka chalilib, es-hushi parishon bo'lib qoladi va o'z axlatining ustiga o'tirib, uni titkilab, hidlab huzurlanadigan holatga tushadi. Umrining oxirgi kuni Xoja Mavlono hushiga qaytadi va huzuriga kelgan Mavlono Muhammad Muammoyga "Agar muhtaram Xoja Ubaydullohning ziyoratiga borsangiz, bizning gunohlarimizni aytib, uzrimizni ham yetkazsangiz, nima qilgan bo'lsak, nafs-izzatlashlik, obro' orttirish uchun qilgan edik. Hammasidan voz kechdik. Karam qilsinlar-da, gunohlarimizni bag'ishlasinlar",

deb tavba qiladi. Xoja Mavlono uning uzrini eshitgan Xoja Ahror uning gunohidan kechadi.

Hirot madaniy davralarning taraqqiy etishi hukmdor Husayn mirzoning san'atkorlarga xayrixohligi va iste'dodli shoir bo'lish omiliga ham borib taqaladi. Samarqandda bu paytda uzoq yillar hukmronlik qilgan Sulton Ahmad mirzo, Bobur ta'biri bilan aytganda, "omi edi". Bundan tashqari, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmudxon va Sulton Umarshayx mirzolar o'rtasida bo'lib o'tadigan urushlar, hudud talashishlarning barchasi adabiy-madaniy muhitning vaqtinchalik ortda qolishiga sabab bo'lardi.

Nazdimizda, Mariya Sabtelnining monografik tadqiqotida Xoja Ahror Valiy haqidagi uydirma o'zani rus sharqshunosligiga borib taqaladi. Olim foydalangan manbalar qatorida rus tarixchisi Vasiliy Bartoldning bir qator asarlari bo'lib, u aynan Xoja Ahror Valiy bilan bog'liq iqtiboslarni o'z xulosalarida keltirmagan bo'lsa-da, lekin tanishganlik jihatdan bu fikrlar ta'siriga tushgan bo'lishi mumkin.

Vasiliy Bartold o'z davrida qadimiy qo'lyozma manbalarni asliyotda o'qib, tahlil qiladigan tarixchi bo'lgan. Shunga qaramay, uning Ulug'bek mirzo davridan keyingi madaniy tanazzulni to'liq Xoja Ahror nomi bilan bog'lashga urinishi tarixiy faktlarni chalkashtirib yuboradi. Xoja Ahror Valiy davri bilan bog'liq boshqa muarrixlarning qarashlari bilan tanishgan holda yana bu murshidga sovuq ayblovni qo'yishda davom etaveradi. Masalan, "Ulug'bek va uning davri" asarida birma-bir keltirilgan iqtiboslarni matnda berib o'tadi-yu, lekin qarshi fikr bildirishda davom etaveradi. Abusaid mirzoning ba'zi harakatlarini yana Xoja Ahror Valiy faoliyati bilan bog'lamoqchi bo'ladi: "Ulug'bekning qirq yillik hukmronligi ham Abu Said tomonidan Toshkentdan chaqirilgan naqshbandiya tariqati vakili Xoja Ahror Valiyning hukmronligi bilan almashtirildi. Shariat va so'fiylik tariqatining tipik vakili Xoja Ahror Valiy turkistonlik eshonlardan edi va unga kitob ilmi begona edi" degan soxta xulosani o'quvchiga singdirmoqchi bo'ladi.

Afsuski, Vasiliy Bartoldning qarashlari o'zbek sovet tuzumi ziyolilari uchun asosiy mezon bo'lib qolgan edi. Bu yolg'on xulosalar iste'dodli jaded, birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat maqolalariga ham soya solgan: "Ulug'bek o'zi ham musiqiy olimlardan sanalg'an... Ulug'bek zamonida mashhur Xoja Ahror Valiyning himoyasi ostida Samarqandda (diniy teskarichilik (aks ul-harakat) paydo bo'la boshlaydi. Shuning ta'siri bilan Ulug'bekning o'lkasida buzg'unchiliklar yuz ko'rsatar-da, Ulug'bekning o'limi bilan natijalanar".

Sevimli adiblarimiz Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojiaiy dramasi, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanida ham ana shu asossiz ayblov, taassufki, davom etgan.

Xoja Ahror Valiy bilan bog'liq noto'g'ri qarashlarni o'rgangan holda rus sharqshunosi Vasiliy Bartoldning nafaqat o'zbekistonlik, balki xorijiy olimlarning izlanishlariga ham salbiy ta'sir o'tkazganiga guvoh bo'ldik. Bu muammo, shubhasiz, olimlarimizni yangi izlanishlarga undamoqda. Mavzu yuzasidan so'nggi tadqiqotlarning yangi natijalarini xalqaro nashrlarda xorijiy tillarda e'lon qilish har birimizning oldimizda turgan katta vazifa va burchimiz hisoblanadi. Albatta, kanadalik olim Mariya Sabtelnining mazkur tadqiqotida yuqoridagi aytib o'tganimiz kabi jiddiy chalkashliklar bor. Lekin bu tadqiqot Hirot adabiy muhiti taraqqiyotining boshqa jihatlarini o'rganish borasida xorijdagi arziqli izlanishlardan sanaladi.

**Elmira HAZRATQULOVA,**  
O'zFA Temuriylar tarixi davlat  
muzeyi ilmiy xodimi





# A'ZAM AYUB QISMATI

orada "Ishtirokiyun" gazetasiga musahhah yordamchisi bo'lib ishga joylashadi. Shu bilan birga 1920-yil o'rtalariga kelib, A'zam Ayub "Yosh buxoroliklar"ning "Tong" jurnaliga maqolalarni oqqa ko'chiruvchi kotib-mirza sifatida ishga qabul qilinadi. Ikki nashrdagi faoliyati jarayonida Vali Allomov, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat kabi ma'rifatparvar ziyolilardan adabiyot, san'at, badiiy ijod sirlarini o'rganadi.

1922-yilning sentabridan "Qizil bayroq" gazetasi "Turkiston" nomi bilan chiqa boshlaydi. Bu paytga kelib, A'zam Ayubning jurnalistika borasidagi tajribasi va jo'shqin mehnat faoliyati inobatga olinib, u dastlab bo'lim mudiri, keyin esa mas'ul kotib o'rinbosari lavozimlariga ko'tariladi. 1925-yildan "Turkiston" gazetasi "Qizil O'zbekiston" nomi bilan chiqa boshlaydi va A'zam Ayub 1937-yilga qadar mazkur gazetada mas'ul kotib o'rinbosari vazifasida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu gazeta tahririyati taniqli adiblar – Abdulla Qodiriy, Elbek, Oybek, Botu va boshqalar kelib turadigan, o'zaro fikr almashadigan manzil edi. Gazetada qalamkash sifatida tanila boshlagan A'zam Ayub bu adiblar bilan tez-tez muloqotda bo'ladi. Natijada u matbuotda ishlash uchun faqat amaliy tajriba yetarli bo'lmasligini ang'laydi. Shu bois avval o'rta maktabni tugatadi, so'ng SAGU (hozirgi O'zMU)ning Ijtimoiy fanlar fakultetida o'qiydi.

A'zam Ayub 1925-yilda "Kambag'al dehqon" gazetasining shakllanishida faol ishtirok etib, 1925-yilning iyulidan 1926-yilning iyuligacha shu gazetada mas'ul kotib lavozimida ham ish yuritadi. Faoliyati davomida "Qizil O'zbekiston" gazetasining ilovasi bo'lgan "Yer yuzi" nomli suratli jurnalga (1926–1928) mas'ul kotiblik qiladi. Dunyo madaniyati, ijtimoiy hayoti, jahon adiblari faoliyati va asarlari bilan o'zbek o'quvchilarini ilk bor tanishtirgan bu jurnalning sarmazmun chiqishida A'zam Ayubning xizmati katta bo'lgan. Keyinchalik bu jurnal "Mash'ala", "Guliston" nomi bilan chiqa boshlaganida ham, u muharrir o'rinbosari lavozimida ishlagan (1931–1937). Faqatgina matbuot bilan kifoyalanmay, o'sha davr adabiy harakatiga faol aralashishga intilgan. A'zam Ayub davriy nashrlarda san'at va adabiy hayotga doir qator taqrizlar e'lon qilgan. U o'z maqolalariga "A'zam Ayub", "Chig'atoy", "A'zam", "Ayub", "Jimit", "Gazetchi" "Tomoshachi", "Toshkentli", "A.A." taxalluslari bilan imzo chekkan.

Afsuski, mustamlakachi tuzum matbuotchi sifatida endigina elga tanilgan hamda tarjima sohasida izchil faoliyat boshlagan A'zam Ayubning hayot va ijod yo'liga nuqta qo'ydi. U 1937-yilning 15-oktabr kuni NKVD xodimlari tomonidan tuhmat bilan qamoqqa olindi. 1938-yil 5-oktabrda NKVD "uchligi"ning yopiq sudi uni soxta ayblovlar asosida oliy jazoga hukm qildi. Hukm 1938-yil 4-oktabrda NKVD Harbiy kollegiyasining shu haqdagi qarori chiqmasidan oldin ijro etilgan edi. Shu tariqa yurtning asl farzandlaridan birining taqdiriga NKVD Harbiy kollegiyasi tomonidan xulosa yasalgan edi. A'zam Ayubov o'limidan salkam 20 yil o'tib, uning ishi qayta ko'rib chiqiladi va 1957-yil 1-avgustda singlisi Muborak Ayubovaga jurnalist A'zam Ayubovning oqlangani ma'lum qilinadi.

A'zam Ayub o'z ijodiy faoliyati davomida millat, xalq manfaatini himoya qilgan ko'plab maqolalar, hikoyalar yozgan. Shuningdek, qalamga olgan mavzular jamiyat hayotidagi eng dolzarb muammolarga bag'ishlanganligi, insonlardagi yomon illatlarni bartaraf etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Uning yaratgan barcha asarlari, tarjimalari va maqolalari o'z davrida o'quvchilar tomonidan qizg'in kutib olingan. A'zam Ayub tarjima sohasida ham o'ziga xos iz qoldirgan. Chunonchi, u Goldonining "Mehmonxona bekasi", Shillerning "Makr va muhabbat" kabi qator sahna asarlarini ruschadan o'zbek tiliga tarjima qilgan. U vaqtli matbuot sahifalarida ham e'lon qilingan ko'plab kichik hikoyalarni tarjima qilgan. Jumladan, P. Sumbottning "Adabsiz zanj", Boris Pilnyakning "Sultonning qahvasi", Blosku Iboniyusning "Yo'lovchi", Anri Barbyusning "Shahzoda Ferdinand" kabi asarlari fikrimiz dalilidir.

Albatta, biz keltirgan misollar A'zam Ayubning ulkan ijodiy merosidan bir qatra xolos. A. Ayub tarjima uchun tanlagan hikoyalarda voqealar qayerda bo'layotgani, kim tomonidan hikoya etilayotganligidan qat'i nazar, o'quvchining ko'z oldida kechayotgan jarayonlarga hamohang boradi. U butun voqelikni o'quvchining saviyasi, dunyoqarashiga moslab, mahorat bilan hikoya qiladi. Umuman, bu hikoyalarga yuksak badiiy saviya, tilning ravonligi va pishiqlik xosdir.

**Bahrom IRZAYEV,**  
tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

## O'tgan asrning

20–30-yillari o'zbek matbuotida ro'y bergan voqeliklarni o'rganar ekanmiz, o'sha davrdagi gazeta va jurnallar bilan birga o'zbek ma'rifatchiligi va jurnalistikasi taraqqiyoti yo'lida jonini fido qilgan Cho'lpon, G'ozii Yunus, Mirmuhsin Shermuhammedov, Sanjar Siddiq, Abdulla Qamchinbek, Muhammad Hasan kabi bir qator taniqli arboblarni nomlari tilga olinadi. Ushbu yozuvchi va jurnalistlar qatorida o'zbek matbuotiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan A'zam Ayub ham bor edi.

A'zam Ayubov 1904-yil 21-avgustda Toshkentning Rais ko'cha mahallasida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. 1917-yilda otasining vafoti A'zam Ayubni maktabni tashlashga majbur etadi. Yosh A'zam oila boqish bilan birga 1918-yildan Munavvarqori Abdurashidxonovning Xadradagi yetti yillik "Namuna" maktabida o'qishini davom ettirdi va u yerda Fitrat hamda Qayum Ramazondan saboq oladi. 1919-yili ustozlarining tavsiyasi bilan "Turon" kutubxonasiga kitob tashuvchi bo'lib ishga joylashadi. Ish jarayonidagi bo'sh vaqtda o'zbek, rus, turk tillaridagi kitoblarni mutolaa qilardi. Dastlab "Ishtirokiyun" va "RosTA" devoriy gazetalarini tahririyatiga borib, u yerda Mirmulla Shermuhammad, Cho'lpon, G'ozii Yunus kabi muharrirlar bilan tanishadi. Tez



## Ibratli umr yo'li



## HARBIY TOPOGRAFIYA RIVOJI UCHUN NAFAQADAN QAYTGAN POLKOVNIK

– Samarqand viloyatining Ishtixon tumanidagi maktabda o'qib yurgan kezlirim geografiya fanini katta qiziqish bilan o'qir edim, deb gap boshladi iste'fodagi polkovnik Xamza Luqmonov.

– 1957-yili maktabni tamomlaganimda qiziqishlarim meni Toshkentdagi Topografiya texnikumi tomon chortladi. Oliy dargohda qunt bilan o'qidim, izlandim. Qiyinchiliklar bo'ldi, ammo ularni sabot bilan yengib o'tishda o'zimda kuch topa oldim. Natijada o'z sohamning malakali kadriga aylandim. Boshida faoliyatimni qishlog'imdagi maktabda o'quvchilarga ta'lim berish yoki kadastr sohasida ishlash bilan boshlamoqchi edim. Shu niyat bilan qishloqqa qaytdim...

Lekin eng birinchi ishim o'z yigitlik burchimni chuqur anglagan holda armiyaga borish bo'ldi. Bu esa taqdirimda keskin burilish yasab yubordi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiotoshdagi joylashgan harbiy qismga bordim. Muddatli

harbiy xizmatni o'tash vaqtida meni kuzatgan ofitserlar: "Oliy ma'lumotga egamisan? Armiyada haqiqiy harbiy xizmatda qolishni xohlaysanmi?" deyishdi. "Sen, albatta ofitser bo'lishing kerak!" deb 1963-yili Leningraddagi ofitserlar tayyorlash

kursiga yuborishdi. Shu tariqa men uchun yangi hayot boshlandi.

O'qishni tamomlab, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda xizmat qilish bilan birga topografiya sohasida qator izlanishlar olib bordim. 1972-yili Harbiy muhandislik akademiyasiga geodeziya yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirib, 1977-yili tugatdim va meni Samarqand oliy harbiy avtomobil-muhandislik bilim yurtiga o'qituvchi sifatida yuborishdi. 12 yil davomida ushbu sohada faoliyat olib borganimdan so'ng meni 1989-yili majburiy nafaqaga chiqarishdi...

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'z Qurolli Kuchlarimizga ega bo'ldik. O'sha davrda kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb edi. 1992-yili topografiya sohasida kadrlar yetishmayotganini, yosh ofitserlar uchun esa bu soha juda muhim ekanligini aytib, meni qayta xizmatga chaqirishdi. Shu tariqa iste'fodagi podpolkovnik yana safga qaytdi, – deya kulib qo'ydi. – 4 yil davomida Samarqand oliy harbiy avtomobil-muhandislik bilim yurtida ta'lim berganimdan so'ng menga Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlariga bu sohani chuqurroq o'rgatish bo'yicha vazifa yuklatildi va xizmat joyimni poytaxtga o'zgartirishdi.

U davrdagi harbiy topografiya bugungidan tubdan farq qilar, texnologiyadan ko'ra, inson ongi ko'proq mehnat qilar edi, aniq koordinatalar zamonaviy uskunalarsiz aniqlanardi. Hududning geografik tuzilishi, baland-pastligi, tog'-u o'rmonlari, dasht-u

cho'llari, daryo va ko'llari, qo'yingki, yer ustida joylashgan barcha ko'zga ko'rinarli mo'ljallarda harbiy texnika va piyodalar harakatlarining o'tkazadigan ta'sirini hisobga olish inson omili bilan amalga oshirilardi. Hozir bu soha rivojlanib ketdi, inson ongi mahsuli bo'lgan zamonaviy uskunalar yaratilib, dengiz deysizmi yoki okeanmi, ularning qaysi nuqtasida turganingizni bir zumda aniqlashyapti.

Shukur, biz ta'lim bergan shogirdlarimiz ko'plab yutuqlarga erishyapti. Buni ko'rib, mehnatlarimiz besamar ketmaganiga quvonaymiz. Qurolli Kuchlar akademiyasida xizmat qilgan yillarim polkovnik harbiy unvonini oldim va xizmatimni yakunlab, 1998-yili qayta nafaqaga chiqdim. Hozirda I darajali mehnat faxriysiman. 36 yil davomida ko'plab medal va ko'krak nishonlariga loyiq ko'rildim. Biroq yutuqlarimning eng kattasi, shubhasiz, shogirdlarim deb hisoblayman. Ularning haligacha xonadonimga kelib xabar olishi, erishayotgan yutuqlari haqida so'zlab berishi va buning zamirida mening xizmatlarim borligini aytib, minnatdorlik bildirishi benihoya quvontiradi. Turmush o'rtog'im bilan 3 o'g'il, 4 qizni tarbiyalab, voyaga yetkazdik. Ulardan uch nafari men kabi harbiy bo'lishdi. Bir o'g'lim polkovnik, yana biri kapitan va bitta qizim kichik serjant. Ular Qurolli Kuchlarimizning turli sohasida xizmat qilib, nafaqaga chiqishdi.

Vatanga xizmat – oliy saodat ekanligini farzandlarim va shogirdlarimga bot-bot uqtirib kelganman. Agar Vatanni sevmasang, uni qo'riqlab ardoqlamasang, chetdan boshqa birov kelib, biz uchun bu ishni qilmaydi, aksincha sen va vatandoshlaring tinchligiga raxna soladi, deb ta'kidlab keldim. Zero bunday tinch va farovon hayot erishayotgan barcha yutuqlarimizning asosidir. Yurtimizga, tinchligimizga ko'z tegmasin. Vatanning asl yigit-qizlari doim bor bo'lsin!

**Markaziy harbiy okrug matbuot xizmati boshlig'i katta leytenant Otabek NORBOYEV suhbatlashdi.**

### Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik



## O'QITUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARI MUSTAHKAMLANDI

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug mas'ul ofitserlari, Qashqadaryo viloyati mudofaa ishlari hamda maktab va maktabgacha ta'lim boshqarmalari bilan hamkorlikda viloyatning barcha tumanlarida joylashgan maktablarning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari bilan o'quv-uslubiy yig'in tashkil etildi.

Sektorlar kesimida bir necha kun davom etgan mashg'ulotlarga 16 ta tuman va shaharning barcha chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari jalb etildi.

Bugungi kunda yoshlar orasida harbiy xizmatchi bo'lishga ishtiyoq ancha yuqori darajada ekanini harbiy ta'lim maskanlarida o'qish istagidagi talabgorlar sonidan ham ko'rish mumkin. Sohaga doir dastlabki harbiy saboqlarni o'quvchilar maktablardagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan olishadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur soha o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash dolzarb masalalardan biridir.

Ustozlar bilan amaliy dars mashg'ulotlarida qurollarni qismlarga

ajratish va yig'ish, shuningdek saf tayyorgarligi bo'yicha bilimlar nazorat qilinib, baholandi. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'in davomida mutaxassislar tomonidan Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga hamda "Temurbeklar maktabi"ga nomzodlarni saralab olish va qabul qilish talablari, kursantlarni o'qishdan chetlashtirish va qayta tiklash tartibi to'g'risida ma'ruzalar qilindi. Mavzu doirasida tarqatma materiallar, bukletlar topshirilib, ushbu manbalarni dars davomida samarali qo'llashlari borasida ko'rsatmalar berildi.

**A. KAMOLOV**





# SOKINLIK

“Zamon shiddati shu darajada oshdiki, har lahzada, har qanday hodisaga shay turish kerakdek!? Dunyo yaxlit, bir butunga aylanib bo'ldi. Biror bir ma'lumotni tarqalib ketishdan asrab qolish deyarli imkonsizga aylandi. Texnika taraqqiyotiga esh bo'lish esa muttasil izlanishni talab qilmoqda.



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug Nuriston shaharchasidagi harbiy qismlardan birida bo'lganimizda Vatan himoyachilarining bu boradagi sa'y-harakatlari, jangovar shayliklarining guvohiga aylandik. Bu yerdagi shart-sharoit va imkoniyatlar bilan tanishar ekanmiz, nazariy mashg'ulotlar zamon bilan, amaliyot bilan baqamti olib borilayotganiga amin bo'ldik.

Artilleriya bo'linmalari xizmat olib borayotgan ushbu harbiy qismda kun tartibiga asosan, dastlab harbiy xizmatchilarning jismonan chiniqishi va jangovar tayyorgarligini mustahkamlash maqsadida



badantariya mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu mashg'ulotlarda harbiy xizmatchilar bilan umumrivojlaniruvchi va tanani qizdiruvchi jismoniy mashqlarga ahamiyat qaratildi.

Mutaxassislik mashg'ulotlari esa zamonaviy harbiy mojarolarning tahliliga ko'ra, yangicha yondashuv asosida tashkil etildi. Jumladan, ushbu mashg'ulotlar bo'linmalarda artilleriya jangovar mashinasi va qurollarini (*to'plarini*) jangga tayyorlash, ularni samarali qo'llash, kichik komandirlarning bo'linmasini gorizont boshqaruv tizimi asosida boshqarish sifatlarini rivojlantirishga qaratildi. E'tiborlisi, amaliy mashg'ulotlarga innovatsion yangiliklar kiritib borish tajribasi an'anaga aylangan. Ushbu yangiliklar mashg'ulotlarni tinchlik vaqtida o'q-dori va motoresurs sarfisi amalga oshirish ishtirokchilarning amaliy ko'nikmalarini oshirib borish imkonini berdi.

– Jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik rejasiga asosan, kasbiy va ma'naviy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar



odatda savol-javob va muhokamalarga boy bo'ladi. Aksariyat hollarda boy tarixiy merosimizni keng qamrovli o'rganish maqsadida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari jalb qilinadi, – deydi podpolkovnik Rustam Abdurahimov. – Bo'linmalarni mohirona boshqarish, nostandart vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish, komandirlik sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan jangovar va safarbarlik tayyorgarligi mashg'ulotlari ishtirokchilarni toblashi, ko'nikma va tajribalarini oshirishi bilan ahamiyatli.

Vatan himoyachilari uchun issig'-u sovuqning, yomg'ir-u qorning ahamiyati yo'q. Har qanday sharoitda ularni faqat

birgina narsa – qo'yilgan topshiriqni to'laqonli ado etish qiziqtiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, tezkorlik, epcillik, chidamlilik kabi sifatlar hamisha ular bilan birga e'tirof etiladi.


O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov “Yugurar zamon, shiddati o'tadi har bir tolamdan”, deya ash'or bitganida ham ko'ngilga quloq tutishga imkon topgan. Harbiy qism shaxsiy tarkibi ham ayni shu kuni, “yugurikli palla”da xalq dostonlaridan ulgi olishni, Alpomish-u Barchinoylar shijoatidan ilhomlanishni istadi. Nishon tumani musiqa maktabi baxshichilik bo'limi boshlig'i Panji Do'stmurodov ijro etgan





Muallif suratga olgan

# ORTIDAGI ZAHMAT



doston-u laparlar atrofda ko'klam nafasi kezib yurgan bir paytda yig'ilganlarni yanada ko'proq, shiddatliroq ildamlashga undadi.

Shu o'rinda harbiy qism kutubxonasi to'g'risida to'xtalmaslik adolatdan bo'lmas. Mazkur kutubxonada 11 mingdan ortiq jahon va o'zbek adabiyoti durdonasi jamlangan. Bundan tashqari, elektron kutubxona mavjud bo'lib, tuman axborot markazi bilan aloqa o'rnatilgan. Audio hamda elektron kitoblar foydalanish uchun hamisha

qulay. Qo'shimchasiga mamlakatimizda mavjud boshqa elektron kutubxonalarga a'zo bo'lgan harbiy xizmatchilar o'zlarining ID raqamlari orqali beqiyos imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin.

Kitobga oshno bo'lish, til bilish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish muhim, albatta. Ular bilan vobasta olib ketiladigan muhim bir jihatni aslo e'tibordan chetda qoldirmaslik

kerak. Bu – jismoniy tarbiya, sport. Har qanday inson, yosh avlod faqat sog'lom bo'lgandagina intellektual yuksak, har tomonlama mukammal bo'lishi, komillikka erishishi mumkin.

Shu ma'noda harbiy qismda bepul sport to'garaklari tashkil qilingani har qancha e'tirofga loyiq. Yana bir jihati, mashg'ulotlar faqatgina harbiy xizmatchilar va ularning farzandlari uchun tashkil qilinmagan. Unda mahalla-ko'ydan istalgan o'g'il-qizlar bemaol qatnashishlari mumkin. To'garaklarda bolajonlarning erishayotgan yutuqlari behad quvonarli.

Taekvondo bo'yicha II DAN qora belbog' sohibi III darajali serjant Firdavs Shamsiddinov rahbarligidagi "Qaqnus" to'garagida 115 nafardan ortiq yosh sport bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Ular orasidan hozirgacha 80 nafardan ortiq viloyat, 15 nafardan ortiq O'zbekiston

championi, 1 nafar Osiyo chempioni va 4 nafar 2024-yilgi jahon chempionatiga yo'llanma olgan yosh tarbiyalanmoqda.

Harbiy qismda o'tgan bir kunimiz davomida davr nafasini tuygandek bo'ldik. Demak, yurtdoshlarimiz mamlakat taraqqiyoti yo'lida xotirjam

odimlashlari, ehtiyoj bo'lganda, sokin tin olishlari mumkin. Bu borada biz ushbu muassasada sokinlik ortidagi mehnat-u mashaqqatlarni, zahmatni rasman his qildik.

**Kapitan  
Aziz NORQULOV,  
"Vatanparvar"**







## Qalb huvullab qolmasin

Bir tanishim to'g'risida ko'pchilik: "O'zidan boshqani tan olmaydi", deydi. Sababi u ayol qayerda bo'lmasin, o'z taklifi, fikri tasdiqlanmaguncha xotirjam bo'lmaydi. Biror masalada gap ochilsa, birinchi bo'lib shaxsiy qarashlarini ayta boshlaydi. Agar kimdir bu ishning boshqa e'tiborli jihatlarini haqida gapira boshlasa, eshitishga toqat qilolmaydi, asabiylashadi, tushunishga xohishi ham yo'q. Bunday paytlarda kimdir foydasiz bahsni to'xtatish uchun jim bo'ladi, kimdir davradan chetlashadi. Uyida, bilmadim, ammo ishonada, tadbirlarda hamkasblari-yu tanish-bilishlari bu ayol bilan gapni qisqa qilishga urinadi.

Ajablanarlisi, boshqalarga so'zini, xohishini o'tkazishda "g'alaba qozonmaguncha" tinchimaydigan bu ayolning xursand bo'lganini, xotirjam yurganini ham ko'rmaysiz: hamma tashvish uning boshida ekani, yugur-yugurlardan charchagani, ishlariga yordam berish o'rniga, yaqinlari ham o'zlarini olib qochishlaridan nolib, battar horiydi.

...To'kilgan boshqalarga duch kelgan chumoli zum o'tmasdan o'sha yerga o'z safdoshlarini nima uchun boshlab kelarkin? Axir uch-to'rtta donni o'zi, bolalari uchun g'amlab olib, yashayversa ham bo'ladi-ku!

Fasllarga qarab manzillarini o'zgartiradigan qushlar olis yo'llarda faqat o'z jismi va qanotidan kuch-quvvat olishiga qaramay, to'p-to'p bo'lib uchishlarining sababi nima ekan? Kabutarlar-chi, pastakkina tomni aylanib uchishda ham hammasi birga, hech bo'lmaganda, jufti bilan... Darvoqe, parvozdagi kabutarlarning har biri o'ziga xos charx urishlari ajoyib: xuddi qavmining qurshovi, davrasi, qo'llab-quvvatlashidan yayrayotganga o'xshaydi. Zero jonivor, qushlarning rizq terishda, uzoq-yaqin safarlarda hamjihatlikka shunchalar ehtiyoji bor ekan, demak, o'z qavmiga yaqinlik, hamkorlik, kelishuv, bir-biriga moslashuvning afzalliklarini his etish ularning-da fitratiga qorishiq ekan-da!

Qarindosh, taqdiridosh, yurtdoshlarsiz to'y-u bayramning fayzi, zavqi, shodligi chala, yarimta. Mulohaza qilsak, oilamizdagilar, qarindosh-u qo'shni, hamkasblar, qadrondar bilan hamjihat, bamaslahat, kelishib ish tutishdan maqsadimiz ulardan faqat moddiy-ma'naviy ko'mak olish emas. Insonning shodligida ham, tashvishli onlarida ham tushunadigan, to'g'ri maslahat beradigan, dardini yengillatib, quvonchini oshiradigan aziz kishilari bo'lmasa, qalbi huvullab qoladi.

Birgalikda ishlar ancha yengil, oson bitadi. Ko'pchilik bo'lib yeyilgan taomning lazzi boshqacha. Yelkadoshlar, hamfikrlar safida qadding, qadring baland ko'rinadi. Buning uchun har doim g'oliblikka intilgan nafsning tama-yu talablaridan voz kechib, o'zgalarning gap-so'zlari, xatti-harakatlari, bilim-tajribalarida ham xayrli jihatlar ko'pligiga ishonib, shu fikrimizga amal qilib yashasak, yolg'izlanib qolmaymiz, inshoalloh.

Donolar hatto kimdir o'zingiz yaxshi bilgan masalani gapirayotgan bo'lsa ham, xuddi birinchi marta eshitayotgan kabi diqqat, qiziqish bilan tinglashni va unga chiroyli javobmunosabat ko'rsatishni ta'kidlaydi.



Maydalab yog'ayotgan qor, izillagan sovuq... Ishga borish uchun Yunusobodning 17-mavzesidan 67-yo'nalish bo'yicha qatnaydigan avtobusga chiqib, orqaroqdagi bo'sh joyga o'tirdim. O'ringa joylasharkanman, avtobusning haydovchi tarafdagi peshtoqiga yozilgan, ichidan chiroq bilan yoritilgan chiroyli S harfiga ko'zim tushdi. U juda chiroyli edi! Yaxshilab qaragam, davomida yana harflar bor, lekin nimqorong'ilikda ularni o'qishim qiyin bo'ldi. Tikilib ketyapman, boshqa hech narsa xayolimni tortmaydi. Nihoyat, S ga yondosh harflarni ham angladim: sabr!

Nazarimda, avtobus ichida bu botini-yu zohiri go'zal so'z mo'jaz quyoshcha bo'lib charaqlay boshladi. Tikilganim sayin qalbingma osoyishta, orasta nurlar taralayotgandek. Nogoh bir novcha yigit ro'paramda turib qoldi-yu, so'z to'silib qoldi. Asta o'ng, chapga og'aman – shu'lalangan so'zga intilaman. Nihoyat, yigit yonga surildi – quyoshli so'z yana ko'zimga tushdi.

Tasavvurimda bu katta avtobusda ketayotganlar hayot karvonining ramziy bir yo'lovchilariga aylandi. Hamma qandaydir niyat bilan yo'lga chiqqan. Ularning orasida kimdir xotirjam-u, kimdir shoshilgan, kim borlikdan ko'ksi baland-u, kim yo'qchilikdan tashvishli, kim sog'-u, kim dardmand, kim shukronada-yu, kim afsusda... Ammo ularning hammasiga – barchamizga, har qanday holatda, har doim yaxshilik, saodat, savoblar yo'lini ochadigan Allohning marhamatli ne'matlaridan biri – sabr kerak!

Bizga kerak va nokerak turli buyumlar, shifobaxshligi nechog'li tasdiqlangani noma'lum dori-darmonlar, bir-ikki oyda xorijiy tilni o'rgatib qo'yishga kafolat berayotgan o'quv kurslari haqidagi e'lonlar, mayli, o'z yo'lga. Ularga hamma birdek ehtiyojmand emasligi – tabiiy. Lekin shunday da'vat, tarbiya, nasihat, yo'l-yo'riqlar borki, ularni tug'ilgandan umringning oxirigacha qancha tinglasang, qalbingga joylasang, ularga amal qilib yashasang – shuncha joiz, shuncha afzal, shuncha xayrli va shunchalar oz...

Sabr so'zini mana bu avtobusda muruvvatli, muhabbatli, talabchan ustoz kabi ko'z o'ngimizga yozib qo'yilgani qanday xayrli ish bo'libdi!

Men o'zim sabr-toqatda noqisligim sababli ko'p pand yeganman. Lekin chiroyli sabr-toqat egasi bo'lishni juda xohlayman. Hozir shu umid yana qalbimni orziqtirarkan, ro'paramdagi yozuv – quyoshcha ko'zlarimga jim-jim yulduzchalar kabi sochila boshladi. Uni ko'raversang, uni sevib qolsang, qalbingga mustahkam jo bo'lib borsa, sabr bizni muruvvatli panohiga olsa, inshoalloh.

Birdan bu quvonchni bo'lishgim keldi – yon-atrofimdagilarga bir-bir qarab chiqdim. Yonimdagi hamroh mening – o'ziga yetti yot begona ayolning bunaqa hayajonlanib, jilmayib nimadir demoqchi ekanidan hayronligi nigohida aks etib turardi. Yozuvga ishora qildim: "Qarang, qanday chiroyli, qanday ibratli, qanday yaxshi!"

Manzilimga yetib, har doimgidan boshqacha kayfiyat bilan bekatda tushdim. Nazarimda, avtobus emas, ichi nurga to'lgan bir ma'vo asta joyidan qo'zg'aldi. Ko'zlarimga u juda boshqacha, ajoyib ko'rinardi.

Muhtarama ULUG'OVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

### Kitobdan yaxshi yor bo'lmas



## Baxtning ifori

O'zim ishonmaydigan narsalarni yoza olmayman. Kitoblar haqida gapirganimda ham eng avvalo o'zimdand kelib chiqqan. Meni mutaassir etgan, yuragimda o'chmas iz qoldirgan, hayotimni yangi o'zanga burib yuborgan, qarashlarimni o'zgartirgan kitoblar ilinib keldim sizga.

Farzandlarimizga hamma narsaning eng yaxshisini bergimiz

keladi. Bolalikda o'zimizda bo'lmagan, o'lishini orzu qilgan narsalar bilan siylashimiz ham bor gap. Bugun o'g'lim ham, qizim ham voyaga yetgan. Qanchalik achchiq bo'lmasin, tan olaman: ularga ko'p vaqt ajrata olmadim. Ularga kerakli paytim ustilaridan qulflab, ishga ketdim. Bog'chaga hammadan avval olib borib, hammadan keyin olar edim. Ishlashim kerak edi...

Uyimizdan traktor zavodining janubiy darvozasi ko'rinib turishini bolalarimdan bilganman. Oynaga qapishib, darvozadan oqib chiqayotgan odamlar orasidan onasini izlayotgan ikki go'dak...

Kitoblar haqida gaplashib qolsak, o'sha ikkovi ko'zlari charaqlab, birga o'tkazgan damlarimizni eslaydi. Ularga o'qib bergan kitoblarimning qahramonlarini eslaydi, kulishamiz, ta'sirchan parchalarini aytadi. Ancha titilib, o'ngib qolgan kitoblarni xuddi menga o'xshab silab-siypalab qo'yadilar. Bolalarimni kuzatib turib, tirikchilik tashvishlaridan orttirganim o'sha ozgina vaqtning qiymatini his qilaman. Va bolalarimning bolaligida quvonchli iz qoldirgan xuddi o'sha nurli lahzalar uchun KITOBdan minnatdor bo'laman.

Qachonlardir o'zim ham bola bo'lganman. Bolalarimdan farqli ravishda kengliklarni ko'rib ulg'aydim. O'zimning qushlarim, jo'jalarim, kurkalarim, yetim uloqcham bo'lgan. Ular mening olamim edi. Yana aka-opalarim... Bu borada juda omadli edim. Chunki ularning har biri kitobsevar edi. Meni ham kitoblar

bilan siylaganlar, yoshimga mos kitoblar sotib olib berganlar. "Bu kitob sening yoshingga to'g'ri kelmaydi", degan taqiq esa meni yana ko'proq qiziqitirgan.

Hayotimda yana bir inson bor edi. Eng katta opam. Tug'ma iste'dod degan iborani eshitgansiz. Yo'q, yo'q, unda hech qanday alohida iste'dod bo'lmagan. U tanlagan, umringning katta qismini bag'ishlagan kasbi alohida iqtidor talab qilmas edi. U shunchaki onadan tug'ma muallima edi!

O'zining uka-singillari kamlik qilganidek qo'shnilarining ham bolalarini yig'ib, dostonlar o'qib berardi. Qishloqda hatto kichkintoy bolalarning ham o'z yumushlari bo'lgani holda u dostonlar o'qib berishga vaqt topgani hayratlanarli edi.

"Shirin bilan Shakar", "Kuntug'mish" dostonlari... Aniq eslayman: yashil muqovali, varaqlari sarg'aygan kattagina kitob. Oradan ellik yilga yaqin vaqt o'tdi. Bir kuni, muallima opam olamdan o'tganidan so'ng narsalarini tartibga keltirayotib o'sha kitobni ko'rib qoldim. Yashil muqovali, varaqlari sarg'ayib ketgan... Qimmatbaho buyum kabi qo'linga oldim, varaqladim,

ko'zyoshlarim bir satr ham o'qishga yo'l bermasdi. Kitobni bag'rimga bosdim. Xayollar, xotiralarimga erk berdim: undan olis bolalikning hidi kelardi, o'sha kichikkina xonaning katta pechkasi ustida o'tirib, o'ziga xos ohangda doston o'qiyotgan, chilvir sochlari tovoniga tushgan go'zal qiz – opam, aka-opalarim, qo'shni dugonalar, o'rtoqlarimni aniq-tiniq ko'rdim. Bu oddiy kitob emas, undan bu dunyoni tark etib ketgan sevimlilarim – Shahodat opam, Sohixon akamning saslari kelardi, beg'am, betashvish bolalik ifori, baxt va huzur ifori kelardi...

Nega bularni yozyapman? Siz uchun yozyapman, aziz o'quvchi. Bolalarimizga kitoblar hadya qiling, oila davrasida o'qing, ularga unutilmas, baxt va huzur to'la lahzalarni tuhfa eting. Yillar yeldirim. Har narsa o'tkinchidir, biz ham o'tamiz. Shunday bo'lsa-da, farzandlarimiz bizdan keyin nimalardadir bizni his qiladilar, biz bilan bog'liq xotiralarini sog'inib eslaydilar. O'sha narsa KITOB bo'lsin. Kitobda hikmat ko'p.

Inobat IBROHIMOVA,  
"Vatanparvar"



# Tolerantlikning pedagogik-psixologik modeli

Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish, imon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni shakllantirish, ta'lim-tarbiya borasida milliy, umuminsoniy an'analar, qadriyatlardan keng va umumiy foydalanish, har bir fuqaroni mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kunning asosiy maqsadidir. Iymonni, e'tiqodni, umuman olganda, tom ma'nodagi insoniylikni ta'minlovchi barcha omillar qalbida chuqur joy olgan fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Shuning uchun bo'lajak ofitserlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

Asli tolerantlik insoniyat tarixida o'zga din, millatlarga nisbatan ehtiromli munosabatda bo'lish mezon sifatida shakllanib kelgan. Chunki tolerantlik urf-odat, madaniyat, qarash va mafkuralarga nisbatan xolis munosabat bildiradi, dunyo rang-barangligini tan oladi. O'zbekistonda diniy tolerantlik, tinch-totuvlik hamda hamjihatlikda yashash tamoyillariga asoslanadi. Ammo aslida tolerantlik juda keng tushuncha sifatida O'rta Osiyoda rivojlangan tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida o'zini to'laroq namoyon etadi.

Tabiiyki, bu jarayonda bo'lajak ofitserlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash hamda milliy mafkura va mustaqillik g'oyalariga asoslangan holda ma'naviyatini boyitib borishda Sharq mutafakkirlarining tolerantlik haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada o'z asarlarida tolerantlikka asos bo'luvchi axloqiy mezonlarni targ'ib va tashviq qilgan buyuk nom sohiblaridan biri Abu Lays as-Samarqandiyning insongagina ato etilgan axloqiy go'zallik bo'lmish tolerantlikning tadqiqi, tahlili va talqiniga bag'ishlangan ta'limotini o'rganish

yanada muhimdir. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin bu asarlarning naqadar qimmatli ekaniga, ular asl milliy-mintaqaviy qadriyatlar to'g'risida hikmat ekaniga ishonchimiz komil bo'ladi. Ularda ilgari surilgan mehmuruvvat, kechirimlilik kabi insoniy tolerantlik sifatleri hozirgi kun yoshlari tarbiyasida ham muhim o'rin tutmoqda.

Bo'lajak ofitserlar o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirishda turli yondashuvdan foydalanib, obyektini yaxlit o'rganish, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, o'rganish obyektlari va tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish, tizimning ishlash va rivojlanish jarayonini o'rganishni taqozo etadi. Bizning tadqiqotimiz doirasida P. Galperin, V. Davidov, G. Shedrovitskiy asarlarida psixologik-pedagogik tadqiqotlarda modellardan foydalanishimiz alohida ahamiyatga ega. Ular yaratgan modellar bir qator funksiyalarni bajarishi mumkinligini ko'rsatadi: illyustrativ, tarjima, tushuntirish va gnoseologik. Har qanday obyekt holatidagi o'zgarishlar modelini qurish

bu o'zgarishga olib keladigan o'zaro ta'sirlar tizimini aniqlash va ularning hal qiluvchi bo'lgan nisbatan faol tomonlarini aniqlashni anglatadi.

Bo'lajak ofitserlarda millatlararo tolerantlikni shakllantirish modelni ishlab chiqishda Konstitutsiyamizda aks ettirilgan jamiyatning ijtimoiy tartibini, shuningdek ko'p madaniyatli jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oldik. Ular o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirishning uslubiy asosi sifatida bir nechta yondashuvlarni aniqlaymiz: tizimli, ekologik va faoliyatga asoslangan. Tizimli yondashuv V. Afanasyev, N. Kuzmina, E. Yudin va boshqalarning asarlarida ko'rib chiqilgan. Ushbu asarlarning tahlili shuni ta'kidlashga imkon beradiki, tizimli yondashuv bo'lajak ofitserlar o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirish, uning tarkibiy yaxlitligi va yaxlit mazmuni haqida ma'lumot olish, tizimni tashkil etuvchi aloqalar va munosabatlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Bo'lajak ofitserlar o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirishda tizimli

yondashuvdan foydalanish quyidagilarni o'z ichiga oladi: obyektini yaxlit mavjudlik sifatida o'rganish, berilgan tizimdagi elementlarning ma'lum bir to'plamini aniqlash, tizim elementlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish, tizimning tartiblilikini ta'minlovchi tizimni tashkil etuvchi ulanishlarni aniqlash, o'rganish obyektlari va tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni ajratib ko'rsatish, tizimning ishlash va rivojlanish jarayonini o'rganish. Bo'lajak ofitserlar o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirish modelining muhim tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq tamoyillardir: yaxlitlik prinsipi, fanlararo integratsiya tamoyili, ong va faoliyat prinsipi. Keling, bo'lajak ofitserlarda millatlararo tolerantlikni shakllantirishning sanab o'tilgan tamoyillari mazmuniga to'xtalib, ularni batafsil ko'rib chiqamiz.

Yaxlitlik tamoyili kasbiy tayyorgarlikni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning birligini bildiradi.

Fanlararo integratsiya tamoyili ta'lim fanlarining birligini nazarda tutadi. Ong va faoliyat prinsipi esa shaxsning bilim olishdagi faol rolini aks ettiradi. Shaxs faoliyat nafaqat oddiy yodlash va diqqatni jalb etishga, balki bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga, yangi bilimlarni o'rganishga, faktlarni tadqiq qilishga va hokazolarga qaratilgan bo'lishi kerak.

Modelning eng muhim tarkibiy qismlari maqsadli, uslubiy kabi bloklar bilan ifodalanadi. Modelning maqsadli bloki tadqiqotning maqsad va vazifalarini o'z ichiga oladi, ularning yechimi oliy harbiy ta'lim muassasalarining bo'lajak ofitserlari o'rtasida millatlararo tolerantlikni shakllantirishga yordam beradi.

Vazifalar quyidagilardan iborat: umuminsoniy va milliy etnomadaniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarash va uni shakllantirish, tolerantlik, millatlararo tolerantlik, turli etnik guruhlarning madaniyati va tarixi, ularning etnik xususiyatlari haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish, ijobiy millatlararo o'zaro munosabatlarni va madaniyatlararo mulqotni o'tkazish ko'nikmalari hamda uni rivojlantirish, millatlararo o'zaro munosabatlarda o'z-o'zini tahlil qilish va adekvat o'zini o'zi hurmat qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bizning nazarimizda, bo'lajak ofitserlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash quyidagi yo'nalishlarda olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

1. Inson huquqlari haqidagi qonunlarni o'rgatish.

2. Shaxslararo munosabatlarda muomala qilish madaniyatini o'rgatish.

3. O'zini vazmin tuta olishni o'rgatish.

4. Millatlararo muomala madaniyatini o'rgatish.

Shu ruhda tarbiyalangan yoshlar vatanparvarlik, tolerantlik, o'zgalarni hurmat qilish, mas'uliyatni sezish kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bo'lajak ofitserlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashda milliy mafkura va mustaqillik g'oyalariga asoslangan holda shakllantirish hamda ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, imon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, har bir fuqaroni mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirishda Sharq mutafakkirlarining tolerantlik haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Dusmurod RAXMONOV,**  
**Qurolli Kuchlar Harbiy meros va zamonaviy tadqiqotlar instituti markaz katta ilmiy xodimi**

O'zbek xalqining faxri, iftixori, g'azal mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy bobomizning 583 yilligi yurtimiz bo'ylab keng nishonlandi. Sana munosabati bilan nafaqat O'zbekistonda, balki chet ellarda, xususan turkiy filli davlatlarda ham turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilayotgani ulug' mutafakkir shoirning dunyo adabiyotida alohida o'rni borligining isbotidir.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Qurolli Kuchlar akademiyasi bilan hamkorlikda "Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi madaniyati hamda o'zbek davlatchiligida tutgan o'rni yoshlar nigohida" mavzusida ilmiy-amaliy va ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda professor-o'qituvchilar, harbiy xizmatchilar, talaba va kursantlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili davlat dasturini amaliyotga joriy etish doirasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, buyuk bobokalonlarimiz boy ma'naviy merosiga yuksak ehtirom ko'rsatish va ulug'lash hamda ularning adabiyot, san'at, madaniyat va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

## Ajdodlarimiz merosi yoshlar nigohida

Tadbimi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov ochib, bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Shuningdek, Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida yoshlarni qo'llab-quvvatlashning muhim vazifasi – ularda o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash, ajdodlardan qolgan moddiy va ma'naviy, milliy-adabiy merosning boshqalar oldida nechog'li ulkan ahamiyat kasb etishini anglatish, ular bilan faxrlanish va g'ururlanish hissini kuchaytirishdan iborat ekanini alohida e'tirof etdi.

Yoshlar tomonidan buyuk bobokalonlarimizning g'azal va ruboiylaridan namunalar ijro etilgani, badiiy chiqishlari va sahna ko'rinishlari, videolavhalar namoyishlari hamda qiziqarli savol-javoblar barchaning qalbida iliq taassurot qoldirdi.

**Podpolkovnik Quvondiq MURTAZAYEV,**  
**FVV akademiyasi kafedra boshlig'i.**  
**Kursant Jamshid HAKIMOV**







Chirchiq shahridagi 15-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi hududdagi o'quvchilar sig'imi eng katta bilim maskanlaridan biri. Buni 10-sinflar soni 7 ta, 11-sinflar komplekti esa 5 ta ekanidan sezish mumkin. Muassasa direktorining o'rinbosari Shuhrat To'xtamurodov mana shu 12 ta sinfga chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (ChQBT) fanidan saboq bermoqda.

# HAYOTIY DARSLAR HOSILASI

intizom bor joyda esa kutilgan samara bo'ladi. O'smirlar shuuriga vatanparvarlik hissini fan mashg'ulotlari asosida singdirib boryapmiz. Masalan, kimsasiz joyda ufq (gorizont)ning asosiy tomonlarini kompassiz qanday aniqlash mumkinligini quyosh nurlari misolida chamalashni bilamiz. Ammo yilning 4 faslida o'sha joyda daraxt qaysi tomonga qarab nisbatan ko'proq o'ssa, o'sha yoq janub bo'lishidan hamma o'quvchi ham xabardor emas. Buni hali nav-nihol hisoblangan bola qanday ruhda tarbiya topsa, u o'sha fazilatga moyil bo'lib ulg'ayishiga taqqoslayman. Shu tariqa har bir mavzudagi qiziqarli, yangi bilimlarni kundalik hayot tarzimizga bog'layman.

Muassasamizda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari faqat 10-11-sinflarda amalga oshirilmaydi. Haftaning juma kunlari har bir sinf rahbari tarbiyaviy soatlarda

ertamiz egalarining ongiga yanada samarali ta'sir etadi. Eng chuqur taassurot qoldirayotgani esa maktabimizga birlashtirilgan Toshkent harbiy okrugi Zirhli texnikalarni ta'mirlash zavodiga bevosita uyushtiriladigan ekskursiyalardir.

O'quvchilarning taassurotlarini shu kuni zavodga tashkil etilgan ekskursiya jarayonida tingladik. Bu yerga ular avval ham kelganini bino ichida qaysi xona qayerda joylashganini bilishidan sezdik. Chindan ham, ular uchun zavodda texnologiya darslarini o'tish uchun maxsus xona ajratilgan. Kutubxonasida o'smirlar yoshiga mos yuzlab adabiyotlarni topib, mutolaa qilish mumkin.

– Bu yerga qancha ko'p kelsam, ish jarayoniga qiziqishim shuncha ortadi, – deydi 10-sinf o'quvchisi Marjona Haydarova. – Zavodning tikuvchilik sexida tikish-bichish sirlarini

o'zlashtiryapman. Zavodda texnologiya fani doirasida o'g'il va qiz bolalarga alohida amaliy mashg'ulotlar o'z sohasining malakali ustalari bilan birgalikda o'tiladi. Shu orqali har birimiz uy-ro'zg'or uchun kerakli kasb-hunarlarini o'rganyapmiz. Zavod uyimizga yaqin bo'lgani uchun sinfdosh dugonalarim bilan

kutubxonadan foydalanishga imkoniyat yaratilgan. Bu yerga ustozimiz Shuhrat To'xtamurodov boshchiligida kelganimiz uchun harbiy xizmatchilar bergan ma'lumotlardagi sohaga xos atamalar izohini undan bilib

olamiz. Bunday vaziyatlarda o'qituvchimiz harbiy xizmat tajribasida ro'y bergan qiziqarli voqealarni qo'shib, astoydil tushuntiradi. Shuning uchunmi, unga hamma birdek havas qiladi, hurmatimiz cheksiz. Har gal zavoddagi ish jarayonini ko'rib, mening ham Vatan ravnaqiga hissa qo'shishga g'ayratim oshadi.

– Mening dadam harbiy uchuvchi. Kelajakda otamning kasbini davom ettirmoqchiman, – deydi 10-sinf o'quvchisi Sarvar To'ychiyev. – Ushbu ekskursiya harbiy yo'nalishdagi bilimlarni o'rganish uchun ayni muddao. Bo'sh vaqtimda mashinalar dvigatelini ta'mirlashga qiziqaman. Bu yerga ekskursiyaga kelganimizdan foydalanib, mutaxassislardan savollaringa javob olaman. Qolaversa, sinfdoshlarim

bilan harbiy texnikalarni tuzatish, ta'mirlash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xushmuomala harbiy akalarimiz bilan bo'lgan suhbatlarda ularning shijoati, matonati, qat'iyati, kasbiga fidokorligini his qilamiz va yurtga daxldorligidan o'rnak olamiz.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi Shuhrat To'xtamurodov maktabning jismoniy tarbiya, texnologiya fanlari o'qituvchilari bilan doimiy hamkorlikda ishlaydi. Fidoyi murabbiy har yili maktab jamoasining o'quvchilar o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkaziladigan harbiy-vatanparvarlik musobaqalari, milliy sport o'yinlarida faol ishtirokini ta'minlashga intiladi.

Ta'lim muassasasida "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakatining otryadi tashkil etilgan bo'lib, unga 20 nafar o'quvchi a'zo. Harakat a'zolari tarkibida eng faol o'g'il bolalar bilan birga 10 nafar a'lochi qiz borligi quvonarli. Ular amaliy mashg'ulotlar, treninglar va boshqa vatanparvarlik tadbirlarida qatnashayotganidan mamnun.

– Zirhli texnikalarni ta'mirlash zavodi joylashgan harbiy qism va 15-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'rtasida 2023-yilda o'zaro hamkorlik shartnomasi tuzilgan, – deydi podpolkovnik Baxtiyor Boyev. – Shartnomaga muvofiq, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, hamkorlikda kasb o'rgatuvchi to'garaklar, ochiq dars va mahorat saboqlarini tashkil etish, elektropayvandchilik, tokarlik, frezerchilik, motor yig'ish, avtoulavlarga texnik xizmat ko'rsatish singari mutaxassisliklar bo'yicha uslubiy ko'mak ko'rsatilyapti. Bu bilan cheklanib qolmay, zavod imkoniyatlaridan kelib chiqib, ta'lim maskani qisman ta'mirdan chiqarilib, texnologiya fanida kerak bo'ladigan o'quv inventarlari bilan ta'minlandi. Joriy yilda ham maktab bilan hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqish uchun aniq rejalar tuzib olganmiz.

Maktab direktori vazifasini bajaruvchi Gulbahor Jumayevaning aytishicha, yaqinda o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 11-sinf bitiruvchilari orasida harbiylik kasbini egallash istagini bildirganlar soni 30 foizga oshgan. Bu ko'rsatkich o'quv maskanida boshlang'ich harbiy saboqlar metodikasi sifatli ekani va harbiy qism harbiy xizmatchilari bilan hamkorlikning yaqqol amaliy natijasidir.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**

Muallif suratga olgan



Uzoq yillar Mudofaa vazirligi qo'shinlarida samarali xizmat qilgan iste'fodagi podpolkovnik Sh. To'xtamurodovning bir kunlik ish tartibi bilan tanishdik. Dastavval ChQBT xonasiga kirar ekanmiz, sinfdagi har bir predmet, jihozning xuddi chizg'ich bilan o'lchangandek tekis va bir xil joylashuvi, toza-ozodaligi diqqatni tortadi.

– Ilk darsimizdanoq o'quvchilarning stol-stulga chizgilari, o'zidan qoldiradigan chiqindilarini maktabda ota-onasi tengi odamlar yuvib, tozalashini bir rivoyat bilan tushuntirdim, – deydi fan o'qituvchisi Shuhrat To'xtamurodov. – Shundan beri qizlar xonaning changini artish, yigitlar

ularga ko'maklashib, o'quv jihozlarini tartiblashni odat qildi. O'quvchilarni bunga hech kim majburlagani yo'q, bu birgina hayotiy misollar asosida o'tilgan dars hosilasi, bolalarning qat'iy xulosasi. Mana, nega xonamiz saranjom-sarishta, poli xuddi armiyadagi kabi yaltiraydi. Tozalik,

muntazam ravishda ayni mavzudagi saboqlarni beradi. Bunday darslardan tashqari Chirchiq garnizonidagi harbiy qism harbiy xizmatchilari kelib, "Mardlik va jasorat" darslarini tashkil etyapti. Ularning egniga harbiy libos kiyib, Vatanga muhabbati haqida bildiradigan fikrlari



## Ishchi guruh yig'ilishi



# Vatanparvar yoshlarni

Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi.

## tarbiyalash yo'lidagi hamkorlik

Shu sababli mamlakatimizda islohotlar ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayaniladi.

Joriy yilning 12-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishi davomida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ong-u shuurini ezgu maqsadlar sari yo'naltirib, kasb-hunar egallashlari va jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga ko'maklashish borasida mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga qator topshiriqlarning belgilanishi ham ertamiz egalarining kamoloti bugun nechog'li dolzarb masala ekanini anglatadi.

Ta'kidlash kerakki, Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi ham respublikamizning chegaraoldi hududlaridagi umumta'lim maktablarida tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublariga a'zo jami 10 ming nafardan ortiq o'quvchi-yoshlarni qamrab olgan holda, ularni yurtga muhabbat, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etib, Chegara qo'shinlarining shonli va jangovar an'alariga asoslangan holda harbiylikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish va bosqichma-bosqich tayyorlab borishga yo'naltirilgan bilan ahamiyatlidir.

Mazkur musobaqaning 2024-yilgi mavsumini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida DXX Chegara qo'shinlari tashabbusi bilan Milliy matbuot markazida tashkil etilgan ishchi

guruh yig'ilishida Toshkent shahri va viloyati hokimliklari, Madaniyat, Maktabgacha va maktab ta'limi, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash, Sport hamda Transport vazirliklari, Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi, Yoshlar ishlari agentligi, Mahalla uyushmasi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, Davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilish avvalida "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining 2023-yilgi mavsumi, unda erishilgan yutuq va natijalar, shu bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklar sarhisob qilindi. Shundan so'ng musobaqani yildan yilga takomillashtirib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyun kungi "Respublika chegaraoldi shahar va tumanlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan "Yosh chegarachilar" klublari faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, hayotga tatbiq etilayotgani ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq, Chegara qo'shinlari va hamkor vazirliklar o'rtasida 2023-yil 26-sentabr kuni imzolangan "Yosh chegarachilar" klublari o'rtasida harbiy-vatanparvarlik musobaqasini tashkil etish, musobaqa shartlari va baholash mezonlarini belgilash to'g'risida"gi qo'shma qaror bu yilgi musobaqalarni o'tkazishda bosh mezon bo'lib xizmat qilishi haqida ham so'z yuritildi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda eng chekka hududlarda istiqomat qilayotgan yoshlarni musobaqalarga keng qamrab olish va buning

uchun birgalikda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar, talab etiladigan kuch va vositalar xususida taklif-mulohazalar bildirildi.

– Quvonarli jihati shundaki, yoshlarimizni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlarini tizimlashtirish maqsadida hamkor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch bosqichda o'tkaziladigan "Yosh chegarachilar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasining huquqiy asoslarini yaratishga muvaffaq bo'ldik. Bugungi yig'ilishimizda ana shu qarorlar asosida tuman, viloyat va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tkazish, ishchi guruh a'zolari tomonidan joylarga xizmat safarlari uyushtirib, hududiy bosqichlarni nazoratga olish masalasi, ishtirokchilarni munosib taqdirlash, musobaqalarni o'tkazish jarayonida yoshlar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, diqqatga sazovor joylarga tashriflarini uyushtirish, yozuvchi va shoirlar, taniqli san'at namoyandalari bilan uchrashuvlarini o'tkazish hamda vatanparvarlikka yo'g'rilgan filmlarni namoyish etish zarurligi muhokama qilindi. Ishonchim komilki, bu yilgi mavsum juda keng qamrovda va yuqori saviyada bo'lib o'tadi, – deydi O'zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi harbiy bo'lim bosh mutaxassisi Nargiza Tojmuratova.

Yakunda yig'ilish ishtirokchilari musobaqalarning barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan vazifalar yuzasidan o'zaro kelishib oldi.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari

## Askar salomi

Posbonlar bilan suhbatlashsangiz, xizmat faoliyatiga to'xtalish asnosida askar bo'lishlariga zamin yaratgan ota-onalaridan minnatdor ekanini ta'kidlab o'tadi. Shunday onlarda ularning nigohida sog'inch tuyg'ularini his qilasiz. O'z navbatida, armiya maktabidagi saboqlar ularda Vatanga sadoqat, ota-ona qadri, qiyinchiliklarga tik qarash, sinovlarni yengib o'tish kabi irodani shakllantirgani uchun komandirlari haqida iliq fikrlar bildiradilar. Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi Chashma qishlog'ida voyaga yetgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Hasan Bahronov ham dil istaklarini bildirishga shoshildi:



– Muddatli harbiy xizmatni o'tab ota-onamiz bag'riga qaytishga oz fursat qoldi. Xizmatga yangi kelgan paytim bilan hozirgi holatimni solishtirsam, menda va safdoshlarimda juda katta o'zgarish bo'lganini his qilaman. Aytmoqchimanki, qani endi, barcha yigitlar armiya maktabida toblansa. Bu ular uchun faqat foyda bo'lardi. Buning uchun

# OTA-ONAMDAN MINNATDORMAN

dadajonim Ozodilla aka va Mahliyo onajonimdan cheksiz minnatdorman.

Dadajon, onajonim, salomimni qabul qiling. Yurtimizning janubiy hududlarida xizmat o'tayotganimga, mana, bir yil bo'lyapti. Hademay, bag'ringizga qaytaman. Meni sog'lom o'stirib, armiya safiga munosib ulg'aytirganingiz uchun boshim egib ta'zim qilaman. Sizlar sabab bugun

mard posbonlar safida qad rostlab turibman. Armiya maktabida dunyoqarashim, orzu-maqsadlarim shakllandi, ya'ni sizlarga, Vatanimga xizmat qiladigan yigit bo'lib ulg'aydim. Bag'ringizga qaytib, menga umid bog'lagan barcha orzularingizni amalga oshiraman.

Sizlarni yaxshi ko'ruvchi o'g'lingiz oddiy askar

**Hasan BAHRONOV**



# Zahiriddin Muhammad Bobur izdoshlari

Fevral – nurlil sanalarga boy oy. Ikki buyuk mutafakkir – hazrat amir Alisher Navoiy, shoh va shoir, tengsiz sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kunlari ketma-ket aynan shu oyda keng nishonlanadi. Qutlug' kunlar munosabati bilan joylarda qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar amalga oshirildi.

“Zahiriddin Muhammad Bobur izidan” deb nomlangan tanlov ham ana shunday ma'rifiy tadbirlar doirasiga kiradi. Mudofaa vazirligi tizimida o'tkazilgan mazkur tanlov aslida biroq avvalroq boshlangan edi. Tanlovning dastlabki bosqichlari vazirlik qo'shinlarida jo'shqin tarzda kechdi. Chunki yoshlarimiz orasida shoh va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga qiziqish kuchli.

Tanlovning yakuniy bosqichi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida bo'lib o'tdi. Unda Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning “Zahiriddin Muhammad Bobur avlodlari”, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning “Janub qalqonlari”, Sharqiy harbiy okrugning “Ko'hinur”, Markaziy harbiy okrugning “Motoo'qchilar”, Toshkent harbiy okrugining “Boburiylar”, Havo hujumidan mudofaa

qo'shinlari va Harbiy havo kuchlarining “Aloqachilar”, Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligining “Fidoyilar” jamoalari har biri uchta topshiriqdan iborat uch shart bo'yicha bellashdi.

Jamoalarning chiqishlarini O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bo'lim boshlig'i Ma'mura Zohidova, Jurnalistlar uyushmasining raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Shuhrat Hayitov, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetidan Akrom Dehqonov, Qurolli Kuchlar faxriysi Nosirjon Hoshimov baholab bordi.

Shartlar orasida hammaga bir xil bo'lgan savol berildi: Z. Bobur ruboiylaridan yod aytish. Hayratlanarlisi, yetti jamoa ham aynan shu shart savollariga mukammal javob berdi. Bu ham buyuk shoir ijodiga bo'lgan qiziqish, sevgi va ehtirom belgisidir. Hatto jamoalardan birining “Ko'hinur” deb nomlanishida ham ana shu muhabbatni ko'rishingiz mumkin.

Shartlar barchasi buyuk ajdodimiz hayoti, bosib o'tgan yo'llari, olib borgan janglari, farzandlariga bag'ishlangan edi. Javoblarda biroz saktaliklar bo'lishi mumkin, ammo har bir ishtirokchining javobi borligi ahamiyatlidir.

– Jamoalar odatdagi tanlovlarga qaraganda ko'proq ekan, sababi nima? – degan savolimga Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi davlat va jamoat tashkilotlari bilan ishlash bo'limidan podpolkovnik G'afur Bozorov shunday javob berdi:

– Zahiriddin Muhammad Bobur mavzusi qanchalik ko'p harbiy xizmatchilarni qamrab olsa, shunchalik yaxshidir. Bu ulug' sarkarda hayoti va faoliyati, dunyo tamaddunida tutgan o'rini yana chuqurroq o'rganish va bilish imkonini beradi. Tanlovning ahamiyati ham shunda.

Tanlov o'z nomi bilan tanlov. Qizg'in kechgan bahslardan so'ng g'oliblar e'lon qilindi. Faxrli uchinchi o'rin “Aloqachilar” jamoasiga nasib etdi.



“Ko'hinur”

jamoasi ikkinchi o'ringa munosib topildi.

Birinchi o'rinni “Janub qalqonlari” sharaf bilan egalladi! G'oliblarga sovg'alar topshirildi.

Tanlovda “Turon” davlat harbiy teatri aktyorlari Bobur siymosini gavdalantirgan chiqishlari bilan barchani xushnud etdi. “Impuls” ansambli jamoasi esa Bobur g'azallari bilan aytiladigan qo'shiqlarni tinglovchilarga hadya etdi.

Mazkur tadbir barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

Inobat IBROHIMOVA,  
“Vatanparvar”

Millat sha'nining ulug'ligi, millat kelajagining buyukligi uning moziyga tutash o'tmishi – ildizi bilan uzviy bog'liq. Jahon maydonida qad rostlab turgan ulug' siymolarimizdan biri buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy bo'lsa, ikkinchisi Zahiriddin Muhammad Boburdir.

## Millatning ikki daho, ikki buyuk shoiri



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat tarixi muzeyida ikki buyuk mutafakkir tavallud kuniga bag'ishlangan “Betakror va barhayot siymolar” mavzusida adabiyot kechasi bo'lib o'tdi. Unda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi. Tadbir Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli san'atkorlarining “Nazm va navo” kuyi bilan boshlandi.

Kecha ishtirokchilari O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori o'rinbosari, dotsent Otabek Jo'raboyevning Navoiy merosining olamshumul ahamiyati, Tarix ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti Davronbek Olimjonovning Zahiriddin Muhammad Bobur tarixi bilan bog'liq qiziqarli ma'ruzalaridan bahramand bo'ldi.

Toshkent shahri Faxriylar kengashi raisi o'rinbosari, iste'fodagi polkovnik Yo'ldoshali Rahmonov ikki buyuk ajdodimizning



vatanparvarligi, xalqparvar va buyuk iste'dod sohibi ekaniga misollar keltirib, Hirot shahriga qilgan safari haqida gapirib berdi.

Darhaqiqat, tadbir mehmonlari to'xtalib o'tganidek, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ulug' shoir va olim, buyuk mutafakkir va davlat arbobi, o'zbek adabiyoti va adabiy tili asoschisi sifatida millat, dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan benazir zotdir. Izlagan imkon topar, deganlaridek, tarix qatlarida ulug' ajdodlarimiz haqida yozib qoldirilgan qiziqarli ma'lumotlar va haqiqatlar mavjudki, olimlarimiz sabab biz ulardan bahramand bo'lamiz.

O'z davrining yetuk shoiri, olimi, musiqashunosi, siyosatdoni bo'lgan Navoiy ilm-u madaniyatga katta e'tibor qaratgan. Qirq to'rt nafar olimni maosh bilan ta'minlagan. Albatta, bu misollar ulug' bobokalonimizning insoniyligi va xalqparvarligidan bir tomchi.

O'n ikki yoshida taxtga o'tirgan Zahiriddin Muhammad Bobur esa butun umr kurashib



yashadi. Temuriyodalarda orasida nifoq o'rmida do'stlik, hamjihatlik o'rnatish yo'lida zahmat chekdi. Uning adolati, xalqparvarligi davlatining gullab-yashnashiga xizmat qildi. Davlat ishlaridan ajralmagan holda she'riyat va adabiyot bilan shug'ullandi.

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi “Turon” davlat harbiy teatri jamoasi tomonidan Boburni talqin etgan qisqa, ammo ta'sirli sahna ko'rinishi tadbir ishtirokchilari olqishiga sazovor bo'ldi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli taniqli xonandasi Dadaxon G'aniyev tomonidan ulug' shoirimiz she'ri bilan kuylangan qo'shiqlar davraga o'zgacha fayz kiritdi.

Madaniy-ma'rifiy tadbir so'ngida Mudofaa vazirligi Madaniyat va ma'rifat markazi tomonidan kechening faol qatnashchilariga tashakkurnomalar taqdim etildi.

Zulfiya YUNUSOVA,  
“Vatanparvar”



# UDDABURONLIK, ZUKKOLIK VA PAZANDALIK BAHSI

Ayni vaqtda respublikamizning barcha hududlarida "Men namunalı oıla bekasıman" shiori ostida "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovining dastlabki bosqichi o'tkazilmoqda.



Jizzax garnizonidagi harbiy qismlardan birida bo'lib o'tgan bellashuv harbiy xizmatchilar oilasining mustahkamligi va ma'naviy jihatdan shakllanishida, farzand tarbiyasida, ro'zg'orni oqilona yuritishda oıla bekalarining qanchalik zahmatli xizmati bor ekanligini amalda ko'rsatdi. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oıla institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan tanlov yuqori saviyada

tashkil etildi. Tanlov qatnashchilari bir necha shart bo'yicha o'zaro kuch sinashdi. Ularning ishtiroki nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan adolatli baholab borildi. Yakuniy natijaga ko'ra eng yuqori ball to'plagan oıla bekalariga bellashuvning okrug bosqichida ishtirok etishi uchun yo'llanma va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Toshkent viloyatida joylashgan harbiy qismda bo'lib o'tgan "Balli, ayollar!" ko'rik-

tanlovi ham qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Unda Zangiota tumani hokim o'rinbosari oıla va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Saodat Usmonova, xalq deputatlari Zangiota tumani kengashi deputati, Axborot kutubxona markazi direktori Surayyo Ahmedova ishtirok etdi.

**Mudofaa vazirligi  
harbiy xizmatchilarning oilalari  
bilan ishlash bo'limi**



## O'zbekiston - 2030

## "Vatanparvar" tashkiloti - mening tanlovim!

### Davlat dasturi loyihasi muhokamasi

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy va hududiy kengashlarida "O'zbekiston - 2030" strategiyasini Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni loyihasi muhokama qilindi.



lozimligi ta'kidlandi.

Hozirda mazkur loyihadan o'rin olgan "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi"ning 14-bandida yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga doir band mavjud bo'lib, "Vatanparvar" tashkiloti ushbu vazifani amalga oshirishga mas'ul ijrochilardan biri sifatida belgilangan.

Tadbir yakunida Husan Botirov barchani "O'zbekiston - 2030" strategiyasini joriy yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokamasida faol ishtirok etishga chaqirdi.

Markaziy kengashda tashkilot rahbari Husan Botirov raisligida o'tgan yig'ilishda mazkur loyiha doirasida "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan aholi, ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish

### Tashkilot faoliyati yaqindan tanishtirildi

"Vatanparvar" tashkiloti Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi tasarrufidagi To'rtko'l tumani o'quv sport-texnika klubida "Vatanparvar" tashkiloti - mening tanlovim!" shiori ostida ochiq eshiklar kuni tadbiri tashkil etildi.



Shu kuni tumandagi 8-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari boshchiligidagi "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari uchun tashkilot binosida ekskursiya uyushtirildi.

Avvalo, o'quvchi-yoshlarga "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan harbiy-vatanparvarlik targ'iboti, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish hamda mehnat bozorida talab yuqori

bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi. So'ngra ular avtomototransport haydovchilarini tayyorlash kursining sinfxonalariga olib kirilib, tashkilotning o'quv moddiy-texnik bazasi namoyish etildi. Yoshlarda ayniqsa, To'rtko'l tumani o'quv sport-texnika klubining "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel", "Raketamodel" sport seksiyalari faoliyati katta qiziqish uyg'otdi. Ularga ushbu sport seksiyalariga a'zo bo'lish va shug'ullanish mutlaqo bepul ekanligi, respublika bo'ylab "Vatanparvar" tashkilotining ko'plab sportchilari nafaqat O'zbekiston, balki MDH, Osiyo va jahon chempionatlarida g'oliblikni qo'lga kiritganligi to'g'risida ma'lumotlar berildi.



# OYOQLARIMIZNING TOMIRI

## NEGA TORTISHADI?

Tortishishlar bitta yoki bir qancha mushaklarni ixtiyorsiz, birdaniga qisqarishidir. Ko'pincha tortishishlar boldir orqa mushaklarida va son old mushaklarida yuzaga keladi. Bu holatdan boshqa mushaklar ham himoyalangan. Ko'pincha uyquning buzilishi yoki jismoniy harakatning to'xtashiga tomir tortishishi sabab bo'ladi. Tomir tortishishi yoki qisqarishi turli xil sabablar tufayli yuz beradi. U yoshlar va qariyalarni ham bir xilda bezovta qiladi. Bu haqda quyida batafsil to'xtalamiz. Tomir tortishishi asosan son, oyoqning old va orqa tomonlarida yuz beradi. Statistikaga ko'ra, 75 foiz tomir tortishi tungi vaqtda, oyoq sohasida sodir bo'ladi.

### KASALLIK ALOMATI BO'LISHI MUMKIN

Darhaqiqat, mutaxassisning fikriga ko'ra, tomir tortishi varikoz, oyoq arteriyalari aterosklerozi, yurak faoliyatining buzilishi, qalqonsimon bez, buyrak kasalliklarining alomati bo'lishi mumkin. Shuningdek, semizlik va infeksiyon kasalliklar sabab tomir tortishadi. Tibbiyot amaliyotida kuzatilishicha, ba'zi bir qon tomir kasalliklari, umurtqa pog'onasi bo'g'imlarida tuz yig'ilganda, asab tizimi, tayanch-harakat muammolarida, mushak hujayralarida moddalar almashinuvi, suv va tuz muvozanatlarining buzilganida, tananing umumiy charchashi, mushaklarning toliqishi, haddan tashqari asabiylashish, sovqotish, vitamin yetishmasligi va shunga o'xshash xastaliklarda ham tomir tortishishi kuzatiladi.

Ko'pincha bu noxushlik ko'p o'tirib yoki turib ishlaganda, zaxda uzoq turib qolganda, uzoq vaqt piyoda yurganda sodir bo'ladi. Ba'zan soppa-sog' odam og'ir ish qilganda, ayniqsa yurib yoki yugurib kelib, qizib turgan oyoqlarini birdan sovuq suvga tiqqanda, daryoda, anhorada cho'milganda tomir tortishishi ro'y beradi. Bunday holatda kutilmagan baxtsiz xodisalar sodir bo'lishi, hatto suvda cho'milayotganda mushak falajlansa odam cho'kib ketishi ham mumkin.

Unutmang, barcha mushaklarning birdan qisqarishi nihoyatda xavfli holatdir! Chunki tanadagi barcha mushaklar bir vaqtning o'zida tortishsa, insonda hushdan ketish holatini keltirib chiqaradi. O'z vaqtida birinchi yordam

ko'rsatilmasa, oqibati shunday fojiali yakun topishi ham mumkin.

### SABABLARI NIMADA?

Quyida tortishishlarning keng tarqalgan yettita sababini aytib o'tamiz.

Mushaklarning zo'riqishi. Ko'pincha tortishishlar jismoniy mashg'ulotlardan keyin yuzaga keladi. Bunda mushaklarda mikrojarohatlar yuzaga keladi va ko'pincha og'riq bilan birga tortishishlar ham bo'ladi.

Qon aylanishining buzilishi. Uzoq vaqt, noqulay sharoitda bo'lganda mushaklarda qon oqimi buziladi. Bunda og'riq, charchoq bilan bir qatorda tortishishlar ham bo'ladi. Bunday holatga tor oyoq kiyim kiyish ham sabab bo'ladi. Chunki poshnasi baland yoki orqasi ochiq oyoq kiyim kiyilganida oyoq kiyimni qulaylashtirish uchun barmoqlar doim bukilgan holatda bo'ladi. Uzoq vaqt zo'riqishdan so'ng mushaklar tezlik bilan "o'ziga kelolmaydi". Natijada tortishishlar kuzatiladi.

Issiq yoki suvsizlanish. Issiq harorat, infeksiya ta'sirida tana haroratining oshishi, jismoniy yuklamalarning ko'pligi ham tomir tortishishiga sabab bo'ladigan holatdir.

Minerallar yetishmovchiligi. Kaliy, kalsiy yoki magniy kabi minerallar yetishmovchiligi mushaklarning bo'shasha olmasligiga olib keladi. Bu esa tortishishlarga olib keladi.

Asab buzilishlari. Asab tizimi qo'zg'alishlarida ham mushak tortishishlari yuzaga keladi.

Homiladorlik. Bo'lajak onalar uchun tortishishlar tanish holat. Chunki aksariyat homilador ayollarda homila 6-7 oylikdan boshlab, muntazam ravishda tomir tortishishi kuzatiladi. Ushbu hodisaning asosiy sababi aniqlanmagan. Ammo qon aylanishining pasayishi, charchoq, stress va bola og'irligi bunga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham homilador ayollar yetarli darajada dam olishi va suyuqlik ichishi tavsiya etiladi.

Ayrim kasalliklar va dori vositalari. Qandli diabet, buyrak kasalliklar, qalqonsimon bez kasalliklari tortishishlarni keltirib chiqaradi. Furosemid, stenokardiyani davolovchi, osteoporoz, alseymer kasalligini davolovchi ayrim preparatlar ham mushak tortishishlarini keltirib chiqaradi.

### TORTISHISHLAR BO'LSA, NIMA QILISH KERAK?

Yengil massaj. Bu spazmlangan mushakning bo'shashiga yordam beradi.

Sovuq va issiq kompress. Tortishayotgan mushakni issiq suvga botirilgan sochiq yoki issiq havoda qizdirilgan sochiq bilan o'rang. Shuningdek, sovuqni ham shunday qo'llash yaxshi natija beradi.

Og'riq qoldiruvchilar qabul qiling. Zero bu ham mushak spazmini bo'shashtiradi.

### QACHON XAVFLI SANALADI?

– Agar tortishishlar tez-tez qaytalasa;

– jiddiy noqulaylikka olib kelsa;

– teri qoplamlari qizarishi, shish kabilarda rivojlansa;

– yuqori harorat va bosh og'irishi bilan birga kechsa;

– mushaklarda charchoq keltirib chiqarsa, mutaxassisga murojaat qiling.

### Tortishishlarning oldini olish uchun:

– ko'proq suyuqlik iching, suvsizlanib qolmang;

– alkogol ichimliklarni iste'mol qilmang;

– jismoniy faollikka odat qiling;

– qulay oyoq kiyimi kiying;

– stresslardan uzoqroq yuring, ko'proq dam oling;

– ovqat ratsioningiz kaliy, magniy, kalsiy kabi mikroelementlarga boyligiga e'tibor qiling;

– zarur bo'lsa, mineral vositalar va biofaol qo'shimchalar iste'mol qiling.

### Qanday qilib tomir tortishishining oldini olish mumkin?

Agar ish faoliyati unchalik ko'p harakat talab qilmasa, ko'proq jismoniy mashqlarni bajarib turish kerak. Ish paytida muntazam ravishda harakatlanish, qisqa yurish, turish va cho'zilish kerak. Bu mushaklarga yordam beradi va tomir tortishishining oldini oladi.

Inson hech qachon o'ziga g'amxo'rlik ko'rsatishni unutmasligi kerak. Odatda kunlik rejaga amal qilmaydigan odamlar me'yorida suyuqlik ichish va ovqatlanishni unutadi. Kun davomida biror marta jismoniy mashqlarni bajarmaslik ham insonning salomatligiga bo'lgan e'tiborsizligidir. Bu esa bora-bora tomir tortishishiga sabab bo'lishi mumkin.

### QANDAY DAVOLASH USULLARI MAVJUD?

Ba'zilar oyoq tomirida spazm yuzaga kelayotganini oldindan his etadi. Siz ham ular safida bo'lsangiz, og'riq qo'zg'alayotganini sezgan zahotingiz oyoq mushaklarini bo'shashtiring. Shunda ham tomir tortishishi kelib chiqsa, o'tirgan holatda oyoq uchini o'zingizga qaratib, 2-3 daqiqa ushlab turing. Agar sport mashqlari bilan shug'ullanganda yoki boshqa jismoniy zo'riqish vaqtida oyoq mushaklari tortishsa

uni mustaqil bartaraf qilish mumkin. Ko'pincha bunga organizmda kalsiy va magniy mikrounsurlari yetishmaganda tanada sut kislotasi yig'ilib, mushak tonusi oshishi sabab bo'ladi. Yassioyoqlikda ham qon va limfa oqimidagi o'zgarishlar pay va mushaklar tortishishiga olib keladi va buni ham uy sharoitida davolasa bo'ladi.

Organizmda magniy va kalsiy moddasi yetishmasa, bunda mikroelementlarga boy mahsulotlarni ko'proq tanovul qilish maqsadga muvofiq. Masalan, sut, tvorog, pishloqda kalsiy ko'p, marjumak (*grechixa*), turshak, yong'oq kabilarda kaliy mo'l. Agar oziq-mahsulotlar bilan vitamin va mikroelementlar tanqisligini tiklash qiyin bo'lsa, shifokor bilan maslahatlashib, vitaminlar, kalsiy va magniy preparatlarini ichish kerak. Oyoqlarni massaj qilish, oyoqda qon aylanishini yaxshilovchi cho'zilish mashqlarini muntazam bajarish tortishishlarni davolash va oldini olishga yordam beradi.

### FOYDALI MASLAHATLAR

Salqin havoda oyoq tomirlari tortishsa qalinroq paypoq kiying yoki oyoq uchun issiq vanna qabul qiling.

Suvda suzayotgan vaqtingizda oyoq tomiri tortisha boshlansa, darhol suzishni to'xtatib issiqroq kiyinish lozim. Qo'l bilan yengil uqalab, tomiri tortishayotgan oyoq panjasini yozish kerak.

Agar odam o'tirganda, yurganda tomiri tortishib qolsa, bir qo'l bilan oyoq panjasini yozib, boldir mushaklarini asta-sekin pastga tomon silash tavsiya etiladi.

Agar oyoq og'rib, uvushib tomir tortishishi doim takrorlanaversa, qon tomirlar va asab kasalliklari shifokorlariga murojaat qilish lozim.

Kunning issiq paytlarida oyoq boldiriga va panjaga vaqti-vaqti bilan parafin, ozokerit, balchiq qo'yish foyda beradi.

Tunda oyoq va tovon mushaklari tortishmasligi uchun bir hafta davomida ovqatlanishdan oldin kuniga 3 mahal 2 choy qoshiqdan asal iste'mol qiling.

Mushaklar va tomirlarda tortishish kuzatilsa, panja va barmoqlar uchun mo'ljallangan mashqlarni bajaring. Ular natijasida qon aylanishi yaxshilansa, tortishish ham tuzalib ketadi.

Oyoqning tez-tez tomiri tortishib turadigan joyiga isitilgan dumba moyini paxtaga shimdirib bog'lang.

**G. HOJIMURODOVA**  
tayyorladi.



## “Boburnoma” asari qayta nashr etildi



Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi oldidan “O‘zbekiston” nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan “Boburnoma” asari qayta nashr etildi.

Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu shoh asarida badiiy tasvirga xos talqinlar, voqea-hodisalar bayon etilgan. Asardagi voqea-hodisalar muayyan ma’nodagi uning qismat sarguzashtlariga chambarchas tutashib ketadi. Shu bois ham asarni boshidan oxirigacha o‘qigan kitobxon o‘smir Boburni, yigit – shahzoda Boburni, oshiq Boburni, umrbod jangovar lashkarboshi Boburni, shahanshoh va mutafakkir, mehribon ota Boburni barcha zafar-u mag‘lubiyatlari, fazilatlarini-yu nuqsonlari bilan

to‘liq tasavvur eta oladi.

Muallif “Vaqoye” (“Boburnoma”)ni yozgani qo‘liga qalam olgan kundan boshlab voqea-hodisalar talqini va kishilar shaxsiyatiga doir fikr-mulohaza va ma’lumotlarning faqat rostini yozishga ahd qilgan. Asar tarixiy voqea va hodisalarga nihoyatda boyligi va o‘sha davr ruhiyatini to‘la ochib berganligi uchun ham qimmatlidir. Shu bois ham bu asar dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan.

Ushbu nashrda birinchi marotaba “Boburnoma”ga oid hujjatli va badiiy rasmlar ilova qilindi. Ayrim matn nuqsonlari tuzatilib, tabdildagi ba’zi bir noaniqliklar bartaraf etildi.

Ushbu durdona asar sizning kitob javoningizdan munosib o‘rin egallashiga ishonamiz. Zero bunday buyuk asarlar asl kitobxonning ko‘ngil mulki bo‘lib qolishi shubhasizdir.

**Abdullaxo‘ja SULAYMONXO‘JAYEV,**  
“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa  
ijodiy uyi muharriri

### Ochiq eshiklar kuni

## Yoshlar harbiy qism mehmoni

Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Muborak tumanida joylashgan harbiy qismda 34 ta umumta‘lim maktabidan 500 ga yaqin o‘quvchini jalb etgan holda ochiq eshiklar kuni o‘tkazildi.



Qarshi harbiy prokuraturasi va tuman hokimligi bilan hamkorlikda o‘tgan tadbirda dastlab mehmonlar qism saf maydonida qurol-aslaha va harbiy anjomlar bilan tanishib, ular haqida ma’lumotlarga ega bo‘ldilar. Harbiy qismda yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlarni ko‘zdan kechirgan yoshlarda harbiy xizmatchi bo‘lishga nisbatan ishtiyoq ortdi.

Shundan so‘ng ertamiz egalari harbiy qism tarixi muzeyida yildan yilga takomillashib borayotgan milliy armiyamiz haqida, yurt himoyachilari bosib o‘tgan shonli yo‘l borasida ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi.

Qism madaniyat saroyida Muborak tumanida joylashgan 2-, 24- hamda 34-umumta‘lim maktabining “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a‘zolariga ko‘krak nishoni va guvohnomalar tantanali ravishda topshirildi.

Ko‘zida shijoat, yuragida Vatanga muhabbat mavjlanayotgan o‘quvchi-yoshlar barcha mehmonlar guvohligida yurtga sadoqatli farzand, tengdoshlariga o‘rnak bo‘lishga va‘da berdilar.

**Katta leytenant Akbar KAMOLOV,**  
Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig‘i

## Murojaatlar ijrosi ta‘minlanmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Mudofaa vazirligi, Toshkent harbiy okrugi qo‘shinlari qo‘mondonligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida Chirchiq shahrida harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari hamda yoshlar uchun sayyor qabul o‘tkazildi.



Unda 150 nafarga yaqin tashrif buyurganlardan 31 ta murojaat kelib tushdi. Ularning ko‘pchiligi joyida ijobiy hal etilgan bo‘lsa, ayrimlari yuzasidan huquqiy maslahatlar berildi, o‘rganish muayyan muddat talab etadiganlari mas‘ullarga yo‘naltirilib, ijrosi nazoratga olindi.

So‘ngra Chirchiq shahridagi “Sharq” mahallasida faollar ishtirokida harbiy xizmatchilarning oila a‘zolari, shuningdek xotin-qizlar va yoshlar huquqlarini amalda ta‘minlash borasida olib borilayotgan ishlar ahvoli o‘rganildi.

Xonadonlarga kirib, ularning yashash sharoitlari bilan tanishdi.

**Adliya mayori Gulchehra TURSUNOVA,**  
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokurorining katta yordamchisi

### Uslubiy yig‘in

## Soha mutaxassislarning malakasi oshirildi

Chirchiq garnizoni ma‘naviyat va ma‘rifat markazi hamda garnizondagi harbiy qism bazasida Mudofaa vazirligi yong‘in nazorati boshqaruv organlari ofitserlari bilan uslubiy yig‘in o‘tkazildi.



Yig‘in davomida yong‘in nazorati boshqaruv organlari ofitserlarining 2023-yil davomida amalga oshirgan ishlari bo‘yicha ma‘ruzalari tinglandi, harbiy qismda yangi qurilgan yong‘in o‘chirish deposida yong‘in o‘chirish komandasi shaxsiy tarkibiga yaratilgan shart-sharoitlar hamda yangi xarid qilingan zamonaviy yong‘in o‘chirish texnikalari, o‘quv-moddiy bazasi, o‘t o‘chiruvchilarning jangovar kiyim va anjomlari bilan tanishtirildi.

Tanishuv davomida yong‘in o‘chirish komandasi shaxsiy tarkibi bilan o‘quv-amaliy mashg‘uloti o‘tkazildi.

Shuningdek, yig‘ilish qatnashchilari Mudofaa vazirligi “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasiga sayohat qilishdi.

Yig‘ilish yakunida Mudofaa vazirligi qo‘shinlarida “Eng ilg‘or yong‘in nazorati organi ofitseri” hamda “Eng ilg‘or yong‘in o‘chirish ekipaji” ko‘rik-tanlovlari g‘oliblari taqdirlandi.

**Mayor Ahmad ORIPOV,**  
Toshkent garnizoni yong‘in  
nazorati inspeksiyasi boshlig‘i







# BOSHLANG'ICH TASHKILOT YETAKCHILARINING MALAKASI OSHIRILDI

O'zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent viloyati kengashi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi bilan hamkorlikda harbiy qism va muassasalaridagi boshlang'ich tashkilot yetakchilarining malakasini oshirish maqsadida o'quv-seminar o'tkazildi.

"Boshlang'ich tashkilotning asosiy maqsadi va vazifalari, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati" mavzusidagi o'quv-seminar hukumat qarorlari ijrosini ta'minlash, shuningdek yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan istiqbolli rejalarni amalga oshirish tizimi hamda o'tgan yilda erishilgan natijalar sarhisobiga bag'ishlandi.

O'quv-seminar davomida tegishli mavzularda ma'ruzalar qilinib, amaliy mashg'ulotlar hamda psixologik



treninglar o'tildi. Shuningdek, "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" yilida amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi loyihasining mohiyati tushuntirib o'tildi.

O'quv-seminar dasturining ikkinchi qismiga asosan ishtirokchilar uchun universitet boshlang'ich tashkilot yetakchi xonasida amaliy mashg'ulot o'tkazilib, davlat va jamoat tashkilotlari

bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida o'zaro fikr almashildi.

Shundan so'ng ishtirokchilarga universitetda yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar, qulayliklar namoyish qilinib, "Vatanparvarlik maskani" bilan yaqindan tanishtirildi.

Ushbu o'quv-seminardan ko'zlangan maqsad yoshlar yetakchilari faoliyati

samaradorligini oshirish, kuch tuzilmalari yetakchilari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, yetakchilar faoliyatida yangi marra va yutuqlarni egallash uchun o'ziga xos motivatsiya yaratishdan iborat bo'ldi.

**Erkin SHAROPOV,**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Toshkent viloyati  
kengashi bo'lim boshlig'i

## MUNOSIB MEHNAT RAG'BATI

Ma'lumki, bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining o'rni beqiyos. Xususan, yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni o'zlarining birinchi galdagi vazifasi deb bilgan tashkilotning Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Boyovut tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasining bu boradagi sa'y-harakatlari e'tiborga molikdir.

Mazkur klubda bo'lgan kishi bu yerda yoshlar uchun barcha imkoniyatlar yaratilgani va yaratilayotganining guvohi bo'lishi tayin. Har tomonlama mukammal jihozlangan ma'naviyat va ma'rifat xonasi, o'quv xonalari hamda sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish imkonini beruvchi seksiya va to'garaklar ma'naviyat va sport tadbirlarini o'tkazishda, bo'lajak



haydovchilar malakasini oshirishda yanada qo'l kelmoqda.

Xullas, tizimdagi klublar miqyosida o'tkazilayotgan turli musobaqalarda, ko'rik-tanlovlarda faxrli o'rinni egallab kelayotgan O'STK jamoasining har bir a'zosi el-yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun haqiqiy vatanparvar bo'lishni o'zlarining muqaddas burchi va vazifasi deb biladi.

Shu kunlarda klubda olib borilayotgan ishlar ko'lami hozirgi davr talabi asosida tashkil etilgan bo'lib, belgilangan rejaga muvofiq amalga oshirib kelmoqda. Birgina o'tgan yil natijalari tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak, rejaga asosan harbiy-vatanparvarlik va yoshlar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha 146 ta tadbir o'tkazildi. Ulardagi ishtirokchilar soni esa 9 620 nafarni tashkil etdi.

Malakali haydovchilar tayyorlash yo'nalishida ham yaxshi natijaga

erishildi. Bunga ko'ra, ming nafarga yaqin "A", "B", "BC" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlandi.

Albatta, qo'lga kiritilayotgan yutuqlar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Bunda klub jamoasining xususan, harbiy-vatanparvarlik va yoshlar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha boshliq o'rinbosari Sabohat Karimovaning ham hissasi katta. Umrini yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek ezgu ishga bag'ishlagan Sabohatxon mana bir necha yildirki mazkur vazifada mehnat qilmoqda. O'tgan qisqa fursat uning sa'y-harakatlari bilan bir qancha ijobiy ishlar qilindi. Boshlang'ich tashkilotlar faoliyati namunali yo'lga qo'yildi. Barcha jarayonlarda keskin burilish yasab, bugungi kunda Boyovut tumani O'STK nafaqat Sirdaryo viloyatida, balki respublikada ham ko'zga ko'ringan klublar qatoriga qo'shildi.

Har qanday mehnat rag'batsiz qolmaganidek, S. Karimovaning izlanishlari, mehnatlari besamar ketmadi. Sababi, u yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirib, boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini namunali yo'lga qo'yganligi uchun tashkilot bir necha yo'nalishlarda g'olib deya e'tirof etildi.

Jumladan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan texnik kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda moliya-xo'jalik yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahliliga ko'ra Boyovut tumani o'quv sport-texnika klubi "Eng ilg'or boshlang'ich tashkilot" deya e'tirof etildi. Shuningdek, mazkur O'STK "Eng namunali tuman o'quv sport-texnika klubi" nominatsiyasida ham faxrli 2-o'ringa munosib deb topildi.

Fursatdan foydalanib, biz ham S. Karimova hamda Boyovut tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasini qo'lga kiritgan yutuqlar bilan qutlab, bu ezgu ishdan bir lahza bo'lsa-da, izlanishdan to'xtamasligi tarafdorimiz. Zero yurtimizda amalga oshirilayotgan ulug' ishlar ana shunday chin ma'nodagi "Vatanparvar insonlar" sa'y-harakati bilan ham Yangi O'zbekiston kelajagiga yo'l ochmoqda.

**Akbar ALI**



O'zbekiston mustaqillikka erishib, o'zining milliy armiyasini qaytadan tashkil etishni boshlagan davrlar. O'sha paytlar harbiy sohada ofitser kadrlarni tayyorlash uchun hozirgi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Maxsus fakultet tashkil etilgandi. Oradan yillar o'tib, to'g'rirog'i, 2019-yil Maxsus fakultet Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti sifatida faoliyatini boshladi.



Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan institut bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga mutaxassis kadrlarni yetkazib berish va ilm-fan innovatsiyalarini rivojlantirish borasida qator yutuqlarga erishib ulgurdi. Baxtiyor Rahimov, Dauletmurat Jaksimov, Nabi Boboyev, Sherzod Turopov, Oybek Mirjalolov, Botir To'rayev kabi o'nlab harbiy xizmatchi olimlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bo'lg'usi ofitserlarga saboq berib kelmoqda. Bugun ularning safi yana bittaga ko'payib, To'lqin Nurmetov PhD doktorligi darajasiga erishdi. Unga olimlik diplomi institut rahbari bo'lib ishlagan professor

## Aloqa harbiy institutining shonli yo'li



Hakim Muhitdinov tomonidan tantanali ravishda topshirildi.

Mamlakatimiz oliy harbiy ta'lim muassasalari orasida o'zining munosib o'rni ega Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tashkil etilganligi bayram sifatida nishonlandi. Bayram tadbirida turli yillar davomida yoshlarga ustozlik qilgan faxriylar, institut shaxsiy tarkibi, Qurolli Kuchlar xizmatchilari, serjant va kursantlar qatnashdi.

Institut boshlig'i texnika fanlari doktori, professor podpolkovnik Baxtiyor Rahimov yig'ilganlarga bayram tabrigini yo'llar ekan, ta'lim muassasasi

bosib o'tgan shonli yo'lning naqadar salmoqli ekanligini ta'kidlab o'tdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tashkil etilgan kun munosabati bilan chop etilgan, 31 yillik tarixni o'zida qamrab olgan kitob faxriy ustozlarga topshirildi.

Bayram yakunida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs hamda "Impuls" ansambli xonandalari ijrosida kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Bayram dasturxonini yozilib, mehmonlar institut tarixiga oid o'z xotiralari bilan o'rtoqlashdilar.

A. RO'ZIBOYEV

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti iqtidorli talabalarni o'qishga taklif qiladi.



Prezidentimizning 2019-yil 17-yanvardagi qaroriga asosan, Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutiga nomzodlarni saralash tanlov asosida respublikamizning muhandislik-texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining 3-bosqichini tugatgan, o'qish yakunlari bo'yicha yuqori natijalarga erishgan, harbiy institutda o'qishni davom ettirish hamda kelgusida kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash istagini bildirgan, shuningdek sog'lig'ining holatiga ko'ra, harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan nomzodlar tarkibidan amalga oshiriladi.

AKT va AHIGA o'qishga kirish uchun arizalar (bildirgilar) 1-fevraldan 31-martgacha (shu kuni ham) qabul qilinadi. O'qishga kirish istagini bildirgan nomzodlar tomonidan mudofaa ishlari bo'limlariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ariza (bildirgi);
- chaqiriluvchining qayd etish guvohnomasi yoki harbiy guvohnomasi;

## O'qishga marhamat!

- nomzod tomonidan qo'lda yoki kompyuterda yozilgan tarjimai hol;
- anketa;
- o'qish, ish yoki xizmatni o'tash joyidan (agar o'qiyotgan, ishlayotgan yoki xizmatni o'tayotgan bo'lsa) tavsifnoma hamda ma'lumotnoma;
- ota-onasining OHTMga o'qishga kirishiga rozilik xati (voyaga yetmaganlar uchun);
- 3x4 sm o'lchamdagi 6 ta fotosurat (bosh kiyimsiz va burchaksiz) hamda 4,5x6 sm o'lchamdagi 4 ta fotosurat (bosh kiyimsiz);
- OHTMga o'qishga kirishda imtiyozlardan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar (asli va nusxasi).

Quyidagi hujjatlar mudofaa ishlari bo'limlari tomonidan tegishli davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda, shu jumladan "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so'rab olinadi:

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
- tug'ilganlik haqida guvohnoma nusxasi;
- ma'lumoti to'g'risidagi (umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional, o'rta professional, o'rta maxsus professional) hujjatlar (asli va nusxasi) hamda reyting daftarchasi (baholar tabeli) nusxasi.

Nomzodlar tomonidan hujjatlarni taqdim etishda chaqiriluvchining qayd etish guvohnomasi yoki harbiy guvohnomasi shaxsan ko'rsatiladi. Keyingi navbatda, amalga oshiriladigan harakatlarni Mudofaa vazirligining normativ hujjat talablariga asosan, mudofaa ishlari bo'limlari belgilab beradi. Hozirda

institutda 8 ta yo'nalish bo'yicha quyidagi bakalavr mutaxassislar tayyorlanmoqda:

- aloqa qo'shinlari taktik qo'mondonligi;
- AKH va maxsus aloqa taktik qo'mondonligi;
- axborot tizimlari va texnologiyalari taktik qo'mondonligi;
- radioelektron razvedka va kurash taktik qo'mondonligi;
- havo hujumidan mudofaa radiotexnika qo'shinlari taktik qo'mondonligi;
- havo hujumidan mudofaa zenit-raketa qo'shinlari taktik qo'mondonligi;
- tarmoq va axborot tizimlari xavfsizligi taktik qo'mondonligi;
- DXX Chegara qo'shinlari (intellektual tizimlar) taktik qo'mondonligi.

Respublikamizning barcha oliygohlarning muhandis-texnik yo'nalishida 3-bosqichda tahsil olayotgan talabalar mazkur institutga kirish uchun nomzod bo'lishi mumkin.

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI

